

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILI KAFEDRASI**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

4- “V” kurs talabasi

KARIMOVA SAYYORA OLIMJON QIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «O‘ZBEK TILIDA AFFIKSAL OMONIMIYANING
GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI»**

Talaba: S.Karimova
Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots E.Xo‘janiyazov
Kafedra mudiri: p.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining
2018-yil 30-maydagi 5-bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2018

Karimova Sayyoraning “O‘zbek tilida affiksial omonimiyaning grammatik va uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2018- yil

DAK kotibi:

O.Xaytboyev

MUNDARIJA

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHNING UMUMIY TAVSIFI	3
I BOB. AFFIKSAL OMONIMIYALARNI BELGILASH MEZONLARI	10
1.1. Omonimiyani belgilash mezonlari	10
1.2. Affiksali omonimiyani chegaralash usullar	14
II BOB. O‘ZBEK TILIDA AFFIKSAL QATORLAR	18
2.1. Affiksali omonimik qatorlari darajasi	18
2.2. Omonimiyada so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtiroki	22
2.3. So‘z yasovchilarning boshqa affikslar bilan omonimligi	29
III. BOB. OMONIMIKA AFFIKSLARNING KONTEKSTUAL XUSUSIYATLARI VA ULARNI O‘QITISH USULLARI.....	44
3.1. Funktsiyasiga ko‘ra omonimik affikslar	44
3.2. Omonimik affikslarni o‘qitish usullari	48
XULOSA	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	57

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Omonimiya masalasi tilshunoslikda qancha o'rganilgan bo'lsa ham, uning qo'shimchalar bilan bog'liq jihatlari to'laligicha o'z yechimini topmagan. O'zbek tilida qo'shimchalar ko'p. Ularning omonimik munosabatida bo'lish hollari bir xil emas. Biz o'rgangan, omonimik munosabatda bo'lgan qo'shimchalar soni 235 tani tashkil qiladi. Ularning omonimik munosabatda ekanligini bilib olish uchun barchasini sinchiklab tekshirish, ularning grammatik ma'nolarini qayta-qayta tekshirib ko'rish zarurati tug'iladi. O'zbek tilidagi bu qo'shimchalarning omonimik munosabatlari katta qiziqish uyg'otadi. Chunki ushbu davrgacha tillarni tasnif qilib, ularni 1. Flektiv; 2. Agglutinatив; 3. Amorf; 4. Polisintetik tillarga ajratganda flektiv va agglutinatив tillarni bir-biriga solishtirish rasm bo'lgan edi.

Ko'pincha grammatik asarlarni, tillarning xususiyatlarini o'rganuvchi asarlarni varaqlab ko'rganda, flektiv tillarga xos qo'shimchalarning ko'p ma'noligini, agglutinatив tillarga xos qo'shimchalarning bir ma'no bildirishini qayd qiladilar. Ammo bu ma'lumot doim ham to'g'ri bo'lavermasligi bizning kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lmoqda.

Bizning kuzatishlarimiz va ko'pgina olimlarning qayd qilishi shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi qo'shimchalarning ham ko'p ma'noliligi isbot talab qilmaydigan holatdir.

Qo'shimchalar shaklan teng kelib qolib boshqa-boshqa grammatik ma'nolarni bildirishi qiziq grammatik holatdir. Shunday holatlar mavjudki, ba'zi qo'shimchalar shaklan teng kelib qolib ko'pgina grammatik ma'nolarni ifoda qilishga ixchamlashadi. Bunday tiplarni tahlil qilganda affikslar orasidagi omonimik munosabatlar 2 ta affiksning har xil grammatik ma'nolarda qo'llanilishidan tortib, bir shaklli affiksning 8 ta ma'nosigacha qo'llanilish holati ko'zga tashlanadi. Bu degani shakli bir xil bo'lgan bitta affiks 8 ta ma'no ifoda qiladi. Shunga bog'liq holda affikslar qatorini bir nuqtai nazardan, ya'ni omonimlik nuqtai nazardan tahlil qilish qiziq natijalarga olib kelishi mumkin.

Bularni hisobga olib biz affikslardagi omonimik holatlarni tekshirdik va bu doim dolzarbligicha qolmoqda. Chunki hech bir tadqiqotchi affikslarni omonimik jihatdan to‘la aniqlab chiqqan emas.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida leksik omonimiya masalasi ko‘p yillardan buyon olimlar diqqatini tortib kelmoqda. Bu masalaga doir A.G‘ulomov, S.Usmonov, Ya.D.Pinxasov, M.A‘lamova, M.A.Jo‘raboyeva, A.Tixonov, T.Xodjaev, R.Qung‘urov va boshqalar o‘z asarlarida e‘tibor qaratganlar. Ayniqsa, bu muammo M.A.Jo‘raboyeva ishlarida atroflicha yoritilgan.¹ Ammo shunga qaramasdan ushbu til hodisasi to‘laligicha o‘rganildi, unga xos barcha masalalar butunlay hal bo‘ldi, degan tushunchaga kelish qiyin. Hali uning aniqlanmagan va barcha so‘z turkumlariga doir affikslarning omonimik jihatlari tekshirib bo‘lindi degan xulosaga kelish mumkin emas. Shularni e‘tiborga olib ushbu muammoni qayta o‘rganish lozim degan xulosaga keldik.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek tilidagi omonimik affikslarni o‘rganish va ularni tizimli holda qarab chiqishdan iboratdir. Chunki bu hodisa so‘z turkumlar aro hodisa bo‘lib, barcha so‘z turkumlaridagi omonimik affikslarni qarab chiqishni, ulardagi omonimik ma‘nolarni aniqlashni taqazo qiladi.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat.

- har bir so‘z turkumidagi affikslarni ko‘zdan kechirish, ularning qaysilari boshqa affikslar bilan omonimik munosabatda bo‘lishini aniqlash;

- so‘z yasovchilar, so‘z yasovchilar bilan ma‘no munosabatida omonimik xususiyatlarini aniqlash;

¹ Гуломов А. –ла аффиксининг маънолари ҳақида. –Бюллетень АН. УзССР, 1944., 5-6-с., О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке.-Научные труды ТашГУ. Вып. 211, языкознание. Т., 1963; Усмонов. С. Ҳозирги ўзбек тилида сўзнинг морфологик тузилиши. ТошПининг илмий асарлари, 42-том, 1-китоб, “Тилшунослик масалалари”, Т., 1963, Пинхасов Я. Д. Ҳозирги замон ўзбек тилида омонимик ва синонимик аффиксларга доир. “Док. науч. теор. Конф. Бух. Гос. Пед ин-та. Бухара, 1957. Аъламова М. Ўзбек тилида оморфемалар. Науч. труды ТашГУ, №268, языкознание. Таш., 1964.Журабаев М.А. Аффиксал омонимияни белгилашнинг формал ва семантик принципларига доир. ТошДУ илмий асарлари. Тиханов А., Ходжаев Р. Омонимия аффиксов в современном узбекском языке. Труды СамГУ, Новая серия., №45, 19654.

- shakl yasovchilar, shakl yasovchilar bilan omonimik munosabatda bo'lishini belgilash;

- omonimik affikslarni o'qitish usullarini ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obykti. To'plangan affikslarni tahlil etish va ularning omonimlik munosabatlarini belgilash. Har bir affiksning qaysi affikslarga omonimik munosabatda ekanligini misollar yordamida ko'rsatish. O'zbek tili morfem lug'atida, izohli lug'atda berilgan misollar bilan ularni izohlash.

Tadqiqotning predmeti. Tadqiqot predmetini matnlardan to'plangan lisoniy misollar vositasida omonimik munosabatning xarakterini aniqlash, ularning so'z yasalishiga, forma hosil qilishiga, mazmun mohiyatiga baho berish, har bir omonimik munosabatning semantik jihatlarini tahlil etishni tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari: tadqiqot usullarini tilshunoslik tadqiqotlarida ko'p qo'llaniladigan tavsifiy, tarkibiy-mazmuniy tahlil, komponent tahlil, qiyosiy, tasviriy metodlar tashkil etadi. Bular O'zbekiston Respublikasining til siyosati, milliy g'oyasi va mafkurasi doirasida tatbiq qilinadi.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbek tili matnlaridagi omonimik affikslarni har xil manbalardan to'plagan holda ularga yangicha nuqtai nazardan yondashildi va quyidagilar ilmiy yangilik sifatida taqdim etildi

- matnlardan to'plangan misollar eng yangi adabiyotlardan olindi va ularning so'z yasalishiga munosabati belgilandi;

- har bir affiks qancha qo'shimchalarga omonimik munosabatda ekanligi aniqlandi;

- har bir qo'shimcha nechta qo'shimchalarga omonimik munosabatda ekanligi aniqlandi;

- har bir qo'shimcha nechta qo'shimchaga omonimik bo'lishi mumkinligi statistik hisoblar bilan ko'rsatildi.

- so'z turkumlari doirasida omonimik munosabat qaysi so'z turkumlarida kengroq uchrashi aniqlandi

- "O'zbek tili morfem lug'ati" da ko'rsatilgan omonimik munosabatlarda siljish bor yoki yo'qligi misollar vositasida ko'rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ish ilmiy faoliyatga intiluvchi talabalarni ilmiy doirasiga xususan, omonimik affikslarning sinxron plandagi omonimik munosabatlarga jalb qilishga yordam beradi. Omonimik munosabatlarning yangilangan til ta'limidagi o'rni va ahamiyatini belgilashga yordam beradi.

Uning amaliy ahamiyati shu bilan izohlanadiki, oliy o'quv yurti auditoriyalarida, umumta'lim maktablarning muayyan sinflarida omonimik affikslarning mazmun-mohiyatini, morfologiya faniga tegishli bo'limlarini malakaviy ishda to'plangan materiallar bilan tahminlash imkonini beradi. To'plangan materiallar metodik qo'llanmalar, uslubiy maqolalar yozishda ham foydalanilishi mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Malakaviy ish kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 56 bet.

I BOB. AFFIKSAL OMONIMIYALARNI BELGILASH MEZONLARI

1.1. Omonimiyani belgilash mezonlari

Til ko'p strukturali hodisadir. Unda ma'nolari bir-biriga yaqin va ma'nolari bir-biridan tubdan farq qiladigan har xil hodisalarni uchratish mumkin. Shunday hodisalardan biri til birliklari o'rtasidagi omonimlik hodisasidir. Omonimlik hodisa si tilning barcha bosqichlarini qamrab oladi. U leksikada ham grammatikada ham kuzatiladi. Ilgari ko'pgina tilshunoslar omonimiyani leksik hodisa deb tushuntirishga urinib keldilar. Aslida u leksikadan tashqari grammatikada ham mavjud.

Grammatik formalar ya'ni qo'shimchalar yuzaki qaraganda ma'nosizdek ko'rinadi, ammo ularni sinchiklab o'rganish, farqlarini aniqlash, ularning ham ma'lum bir ma'nolarining ifodasi ekanligidan darak beradi.

Grammatikada ikki yoki undan ortiq grammatik shaklning teng kelib qolish hodisasi nihoyatda sinchiklovlik bilan tadqiqot olib borishni talab qiladi. Faqat shu asosdagina, affikslar o'rtasida omonimlik xususiyatni payqab olish mumkin. Shuning uchun ham tilshunoslikda bu hodisa ko'pgina olimlarni qiziqtirib keldi va ular ma'lum bir izlanish tarixiga ega bo'lgan muammodir.

Ayniqsa bu masala bo'yicha rus tilshunosligi birmuncha boy tajiribaga ega. Buni shundan ham bilish mumkinki grammatik omonimiya masalasi rus tilida chiqqan ayrim darsliklarda o'zining maxsus ifodasini topgan.

Olim A.K.Shaykevich esa omonimlarni tasnif qilish an'analari va yo'llari haqida alohida fikr yuritadi.

Akademik V.V.Vinogradov o'zining maxsus maqolasida umuman omonimiya masalasiga keng to'xtalib, grammatik omonimlar haqida ham atroflicha fikr yuritadi.

Omonimlarga qiziqish shunchalik kuchliki, u fanlar Akademiyasining tilshunoslik instituti Leningrad bo‘limining ilmiy ishida maxsus munozara obyekti bo‘ldi va uning materiallari alohida to‘plam bilan nashr qildirilib, omonimlik hodisasining tildagi xususiyatlari haqida qimmatli fikrlarning o‘rtaga kelishiga sababchi bo‘ldi.

Turkologiyada ham bu masala bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilgan. B.O.O‘rozboyeva o‘zining alohida kitobida maxsus to‘xtaldi va so‘z yasalishi sohasidagi omonimlarni alohida ko‘rsatib o‘tdi.

Qozoq tilida esa affikslarning omonimlik xususiyatlari bo‘yicha alohida ilmiy tekshirish ishi bajarilib, kandidatlik dissertatsiyasining obyekti bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida birinchi omonimlik affikslar haqida birinchi qayd qilgan olim Ya.D.Pinxasovdir.

Shundan keyin affiksal omonimiya hodisasi to‘g‘risida maxsus maqolalar e‘lon qilindi va ularda affiksal omonimiyaning xususiyatlari tahlil qilindi.

Keyinchalik M.A.Jo‘raboyeva o‘zbek tilida affiksal omonimiya hodisasini maxsus tadqiq qilib, kandidatlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Xullas, yuqoridagi ishlardan ko‘rinadiki, affiksal omonimiya masalasi tilshunoslikda ancha ishlangan soha hisoblanadi, lekin shunga qaramasdan bu sohada qilinadigan ishlar juda ko‘p.

Affiksal omonimiya masalasi ilmiy doirada alohida tadqiq qilingan bo‘lsa, ham maktab o‘quvchilari, talabalar bu hodisani to‘laligicha farq qila olmaydilar.

Bu hol uning o‘rganilishi hali ommaviy tus olmaganligi sababdandir. Shuning uchun malakaviy ish obyekti qilib, affikslar omonimiyasini tanladikki, bu o‘sha grammatik hodisaning xarakterli tomonlarini ko‘rsatib berishga katta yordam beradi. Omonimik affikslarni o‘rganishda keyingi yillarda chiqqan o‘zbek tilining morfem lug‘atida unga katta e‘tibor berilgan.

Bu hol uning til strukturasi katta o'rnini borligidan darak beradi. Biz bu malakaviy ishni yoritish va uni yuzaga keltirishda yuqoridagi ishlardan foydalandik va misollarni badiiy adabiyotdan tanladik. Shu asosda uni har turli omonim affikslarning xarakterli tomonlarini yoritishga harakat qildik.

Affiksial omonimik holatni belgilashning umumiy nazariy jihatlari hali deyarli ishlab chiqilmagan. Biroq ko'pchilik tilshunoslarning omonimiyaga bergan ta'riflarida affikslarning formal tengligi, ammo semantik jihatdan farq qilishi ko'rsatib o'tiladi. Bu 2 belgining omonimiyasi faktini belgilashning asosiy kriteriyasi ekanligi omonimiyasi masalasiga bag'ishlangan maxsus diskussiya materiallarida ham qayd qilingan.

Biroq «shakliy tenglik» va «ma'noda farqlilik» tushunchalarini barcha tekshiruvchilar birday talqin qilmaydilar. Ayrimlar «formal tenglik» deganda umuman til edinitsalarining (shu jumladan, affikslarning ham) «bir xil aytilib, bir xil yozilishi»ni, «talaffuzi ham, grafik ifodasi ham aynan bo'lishi»ni ko'rsatsalar, ba'zilar yo fonetik (talaffuz) tomoni, yo grafik (yozilish) jihatininggina teng kelishini ta'kidlash bilan cheklanadilar.

Bizningcha, «formal tenglik» tushunchasida ham aytilishini, ham yozilishini hisobga olish zarur, chunki marksistik falsafiy nuqtai nazaridan ham tilning material qismini uning tovush (birlamchi) va grafik (ikkilamchi) tomonini tashkil etadi va har 2 tomon birgalikda uning formasi sanaladi.

Biroq tilda aytilishi bir xil bo'lib, yozilishi farqlanadigan yoki aksincha holatlar ham yo'q emas. Shu jihatdan ko'pchilik «ishlarda omonimlarning o'z ichida 2 turi-omofon va omotraflar-farqlanadi. O'z navbatida bu xususiyat, bunday bo'linish, affiksial omonimlarga ham xos bo'lib, buni o'rnini bilan hisobga olish zarur.

Yana shuni aytish kerakki, «formal tenglik» ifodasidan anglashilgan ma'no kamida 2 ta til edinitsasi o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi. Xuddi shu nuqtai nazardan shakliy teng holatlarni (albatta, polisemiya bundan mustasno) «birgina forma» deb tushunish noto'g'ridir. Ya. D. Pinxasov shunday yozadi: «Birgina forma bo'lib, turli ma'nolarni hosil qiladigan, har xil turkumdagi so'zlarni yasaydigan affiksga omonimik affiks deyiladi».

Holbuki, «birgina forma» haqida gap ketar ekan, bu o'rtada omonimlik to'g'risida gapirish mantiqan ham mumkin emas. Bunday holatlar polisemiya sifatida talqin qilinishi kerak.

Demak, formal tenglik tushunchasi kamida 2 va undan ortiq mustaqil til edinitsalarining shaklan mos kelishi demakdir.

O'z navbatida bu tushuncha (formal tenglik)ni juda keng ma'noda ham tushunmaslik kerak. Biroq ayrim ishlarda tovush kompleksi jihatidan mos kelgan har qanday til birliklari aytilishi va yozilishidan qat'iy nazar, bir omonimik qatorga kiritib yuboriladi va shu prinsipga ko'ra guruhlanadi. Masalan, konkret affiksali omonimik qator haqida gap ketganda xuddi shu formadagi yuklamalar (xususan, **-chi**, **-da** elementlari) so'zlarning qisqargan formalari (**-mish**<**emish** **-kan**<**qan**, **-la**<**bilan** kabi) ham shu qatorga kiritiladiki, bu shakliy tenglikni juda keng va shartli tushunishdir. Demak, shunday qilinganda mustaqil so'z bilan **-gina**, **-ish** so'zlari) affikslar (**-gina**, **-ish**) o'rtasida ham son-sanoqsiz omonimik holatlar yuzaga kelgan bo'lardi. Natijada omonimik qatorni chegaralash, umuman omonimiya hodisasini belgilash juda murakkablashib, chigallashib ketardi; tovush jihatdan ohangdoshlik, ya'ni omofoniya bilan omonimiya hodisasi qorishtirib yuborilardi.

Holbuki, omonimiya hodisasini, xususan, affiksial omonimiyani teng qiymatli edinitsalar doirasida olib qaragan ma'qul.

O'z navbatida bunday cheklash quyidagi holatlarni istisno qilmaydi. Aksincha, bunda sodda affiks bilan qo'shma, sostavli formalarning duch kelishi, o'zbek tili elementi bilan o'zlashgan affiksial edinitsaning shakliy mosligini yuzaga keltirishi, adabiy til doirasida qo'llanuvchi affiksial forma bilan u yoki bu shevaga xos bo'lgan morfologik ko'rsatkichning shakliy tenglik hosil qilishi, affikslarning ko'p variantlilikiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Haqiqatan, ba'zan u yoki bu sodda affiks 2 ta affiksning qo'shilmasidan iborat bo'lgan bironta shu shakldagi boshqa sostavli yo qo'shma affiks bilan formal teng kelib qolishi mumkin.

Masalan, **-la+-r II** formasi ko'plik qo'shimchasi **-lar I** ga, **-la + -y II** qo'shilmasi **-lay I** affiksiga shaklan teng bo'lib, **-lar I** strukturasi ko'ra sodda affiks bo'lsa, **-lar II** esa fe'l yasovchi **-la** va sifatdosh ko'rsatkichi **-r** komponentlaridan tashkil topgan sostavli formadir. Qiyoslang: **gul + lar I**, **gul + la + r II**. Shunga o'xshash, **-lay I** ravish yasovchi sodda affiks bo'lsa, **-lay II** fe'l yasovchi **-la** va buyruq-istak mayli ko'rsatkichi **-y** affikslarining birikishidan hosil bo'lgan sostavli formadir: **butun lay I bu-tun-la + -y II**.

Teng qiymatli edinitsalarning qiyoslanishi haqidagi fikr bunday shakliy teng formalarning chog'ishtirilishiga zid kelmaydi, chunki bu o'rinda struktural farqli bo'lgan 2 ta teng qiymatli edinitsa-affiksial forma qiyoslanilyapti.

Shuningdek, affiksial omonimik holatni chegaralash masalan u yoki bu tildan o'zlashgan affikslarning o'zbek tilidagi affiksial morfemalar bilan omonimlik hosil qilishini ham inkor etmaydi. O'zbek tilida esa bunday o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan, son jihatdan kengaygan omonimik

qatorlar anchagina. Bu jihatdan **-ov**, **-l**, **-an** formasidagi omonimik qator xarakterlidir. Chunki fe'l darajasini yasovchi **-l I** (o'qildi), sifat yasovchi **-ov I** (sinchkov), fe'l yasovchi **-an I** (kuchan) affikslarining omonimik juftlari rus tilidan o'zlashgan, sifat yasovchi **-l II** (muzikali), familiya ko'rsatkichi **-ov II** (Karimov), arab tilidan o'zlashgan, ravish yasovchi **-an II** (taxminan) ko'rsatkichlaridir.

Ko'rinadiki, bu holatda ham, garchi 2 xil tilga xos morfologik ko'rsatkichlar qiyoslansada, ular, avvalo, teng qiymatli affiksalar edinitsalardir.

1.2. Affiksalar omonimiyani chegaralash usullari

Biroq affiksalar omonimik qatorni belgilashda o'zbek adabiy tili va dialektlarining o'ziga xos bo'lgan affiksalar edinitsalari qorishtirilmasligi, balki, bu o'zaro aloqador doiralar ma'lum darajada farqlanishi kerak; shu ma'noda hozirgi zamon o'zbek tiliga, hozirgi o'zbek adabiy tiliga, u yoki bu shevaga xos bo'lgan affiksalar omonimik formalarni chegaralash zarur. Chunki biror shevaning o'zidagina uchraydigan ayrim affikslar adabiy tilga xos bo'lmasligi yoki buning aksi ham bo'lishi yoxud shu formalar ham adabiy tilda, ham shevada uchragani holda boshqa-boshqa ma'no va funksiyada qo'llanishi mumkin. Masalan, **-di** (**-di**) formasi Farg'ona tip shevalarda ham tushum, ham qaratqich kelishigi qo'shimchasining ko'rsatkichi (**sizdi-sizni**, **sizding-sizning** kabi) hisoblansa, xuddi shu forma Xorazm shevalarida ot yasaydi: **vag'irdi-shovqin-suron**, yoki: Toshkent shevasida **-a** formasi ko'plikni anglatadi (**biza-bizlar**), Xorazm shevalarida jo'nalish kelishigi qo'shimchasini ko'rsatadi: **atama-otamga** singari.

Lekin, shunga qaramay, konkret shevalardagi affiksial omonimlar haqida gapirganda bu formalarni bir omonimik qatorga kiritish mumkin emas. Biroq shu formalar shevalarda birday ishlatilsa, bir xil ma'no va funksiyada qo'llansa, adabiy tilda ham shu xususiyatlarga ega bo'lsa, shundagina ularni bir omonimik qatorga qayd etish mumkin bo'ladi.

Yana shuni aytish kerakki, ayrim ishlarda ma'lum omonimik qatorga kiritilgan affikslar sanalar ekan, ularning fonetik ko'rinishlari (variantlari-allomorfalari) birgalikda (masalan, -sh affiksiga -(i) sh qo'shimchasi omonim bo'ladi, tarzida) ko'rsatiladi. Holbuki, formal tenglik prinsipiga ko'ra bunday affikslarning konsonant variantini (-sh formasini) alohida, vokal variantini (-sh formasini) alohida omonimik qatorga kiritish kerak bo'ladi. Shu jihatdan bir affiksning boshqasiga omonimligi ko'rsatilar ekan, ularning qanday variantlarda shaklan teng kelishini e'tiborda tutish zarur.

Demak, formal tenglik tushunchasi til taraqqiyotining muayyan davridagi hamda 2 ta teng qiymatli, mustaqil til edinitsalarining ham aytilish, ham yozilish jihatdan mos kelishini anglatadi.

Omonimlarga berilgan ta'riflardagi 2-qism, ya'ni «ma'nodagi har xillik» tushunchasi ham tekshiruvchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bu ayniqsa affiksial omonimlarga berilgan ta'riflarda aniq ko'rinadi. Ularda affikslar ifodalagan ma'noning leksik ma'nodan farq qilishini nazarda tutib, ta'rifdagi «ma'no» tushunchasini chegaralab ko'rsatishga intilish ko'zga tashlanadi.

Shunga ko'ra, qator ishlarda ta'rifga formal teng affikslarning «grammatik ma'nosiga ko'ra», «funksional semantik xususiyatiga ko'ra», «har xil so'z turkumlarini yasashga ko'ra» farqlanishi qo'shimcha qilinadi. Bu, birinchidan, shu affikslar o'rtasidagi omonimik holat faqat bir turkum

yoki bir funksiyani bajaruvchi (masalan, soʻz yasovchilar doirasidagina) qoʻshimchalar oʻrtasida yoxud har xil turkumga kirib, har xil funksiyani bajaruvchi affikslar oʻrtasida mavjud, deb qarashning ham natijasidir.

Ikkinchidan, affikslar omonimiyasini chegaralab (masalan, bir turkum doirasida yoki soʻz yasovchilar doirasida olib) oʻrganish bilan ham bogʻliq. Mana shu 2 nuqtai nazardan qaraganda bu taʼriflar toʻgʻri boʻlishi mumkin. Lekin umuman olganda affiksial omonimiyaga nisbatan bunday chegaralashni qoʻllash mumkin emas. Chunki bir omonimik qatorga kirgan affikslar juda xilma-xil maʼno va funksiyalarni bajarishi, turli grammatik kategoriyalarga mansub boʻlishi mumkin. Ularning oʻziga xos barcha xususiyatlarini esa taʼrifda aks ettirish qiyin.

Toʻgʻri, soʻzlar anglatadigan leksik maʼno bilan qoʻshimchalar anglatadigan maʼno bir xil emas. Chunki affikslar oʻzicha mustaqil maʼno bildirmaydi. Balki ularning maʼnosi nisbiy boʻlib, oʻzi birikayotgan asos-oʻzak bilan birgalikda reallashadi.

Tilshunoslikda soʻz yasovchi qoʻshimchalarning leksik maʼno bildirishi, soʻz oʻzgartuvchilarning esa grammatik maʼno anglatishi koʻrsatilgan. Shu jihatdan affiksial omonimlarga berilgan umumiy taʼrifda mana shu 2 xil «maʼno»ni aks ettirish kerakka oʻxshaydi. Lekin affiksial omonimik qator hamma vaqt ham soʻz yasovchi yoki soʻz oʻzgartuvchi affikslardan iborat boʻlavermaganligi sababli taʼrifdagi «maʼno» soʻzini qoʻshimcha izohsiz ishlataverish maʼqulday koʻrinadi. Demak, grammatik maʼnoni leksik maʼnodan ajratib yuborish ham xato boʻladi, chunki asli u (grammatik maʼno) ifodalashning komponentlaridan biridir.

Ikkinchidan, qoʻshimchalarga xos boʻlgan maʼno bilan soʻzlardagi maʼnoning farqliligi munozara talab qilmaydi. Lekin maʼnoning xarakteridan (leksikmi, grammatikmi) qatʼiy nazar, ular bir-biridan aniq

farq qilib tursa, ma'nolar bir-biri bilan bog'lanmasa shu o'rinda shakliy tenglik haqida gapirish mumkin.

Demak, omonimlarni belgilashdagi formal tenglik prinsipi ma'nodagi farqqa asoslanadi. Shunday ekan, shaklan teng birliklar, masalan, affikslar ma'no jihatdan farqlansa alohida mustaqil edinitsalar hisoblansa, qiymat jihatdan teng edinitsa sanalsa, bunday formal tenglikni faqat bir xil funksiya yoki bir turkum doirasida chegaralab qo'yish bir tomonlama hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, affiksial omonimik qatorni belgilashda asosiy 2 ta prinsip-semantik va formal prinsipga asoslanish kerak.

Affiksial omonimlarni formal prinsip nuqtai nazaridan o'rganish omoaffikslarning kelib chiqish holatlari, aytilishi va yozilishi bilan bog'liq bo'lgan ko'rinishlari, struktural kabilarni atroflicha yoritishga imkon bersa, semantik prinsip asosida yondashish esa affiksial omonimiya bilan affiksial polisemiyaning, affiksial ko'p funksiyalilik hodisalarining chegarasini aniqlashga yordam beradi.

II BOB. O‘ZBEK TILIDA AFFIKSAL QATORLAR

2.1. Affiksal omonimik qatorlari darajasi

Formal teng affikslarni yoppasiga olib (bir omonimik qator ichida), omonimik guruh sifatida analiz qilish qo‘shimchalardagi omonimik munosabatning ko‘proq qaysi turkum doirasida (masalan, ot yasovchilar omonimiyasi), funksiyasi jihatdan qanday qo‘shimchalar o‘rtasida (masalan, so‘z yasovchilar va forma yasovchilar o‘rtasidagi omonimiya) uchrashi kabi masalalari aniqlashni ancha qiyinlashtiradi. Bu o‘zaro omonim bo‘lgan ko‘rsatkichlarning grammatik xarakteri jihatidan xilma-xilligi, ko‘p variantlilik va omonimik qatorda (guruhda) ishtirok etgan affikslar soni hamda nisbatining bir xilda emasligi bilan izohlanadi. Lekin bu omonimlarni yoppasiga olib o‘rganganda aniq xulosalar chiqarish mumkin emas, degan gap emas. Aksincha, xuddi shu tartibda o‘rganilgandagina o‘zbek tilidagi affikslar omonimiyasining ham umumiy, ham xususiy holatlari haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Analiz qilingan barcha omonimik qatorlardagi omoaffikslarning umumiy miqdori hisoblab chiqilganda (biz analiz qilgan barcha affiksal formalar birgalikda) 235 ta ko‘rsatkich o‘rganilganligi aniqlandi. Ular o‘rtasidagi omonimik munosabat 83 ta omonimik qatorni tashkil etdi. Lekin shuni aytish kerakki, agar affikslarning arxaik va dialektal formalari, tipik bo‘lmagan fonetik variantlarni ham hisobga olsa, bu raqamning yanada ortishi, omonimik qatorlar sonining ko‘payishi shubhasizdir.

83 ta omoqatorni ularda ishtirok etgan affikslarning soniga ko‘ra guruhlaganda esa o‘zbek tilida omonimik munosabat ikkitadan tortib 8 tagacha qo‘shimcha o‘rtasida bo‘lishi mumkin. (Albatta, bu oxirgi chegara

bo‘lmasa kerak). Lekin affikslar o‘rtasidagi omonimik munosabatlarning nisbati o‘rtasida anchagina farq bor. Omonimik qatorlarni ularni tashkil etgan qo‘shimchalar sonidan kelib chiqib hisoblaganda quyidagi natija kelib chiqadi (I-jadvalga qarang).

Anglashilishicha, o‘zbek tilida affikslar o‘rtasidagi omonimik munosabat ko‘proq 2 ta ko‘rsatkich o‘rtasida (omonimik qatorlarning umumiy soniga nisbatan 54,21%) bo‘ladi. 3 ta qo‘shimchanning shaklan teng kelib qolishi 21 omoqatorni (25,3%) tashkil etadi. 4 ta affiksning omonimligi 9 omoqatorni (10,83%), 5 elementli 4 omoqatorni (4,82%), 6 elementli 3 omoqatorni (3,6%), 8 elementli bitta omoqatorni (1,2%) yuzaga keltirgan.

Demak, 2 ta qo‘shimchanning shaklan teng kelib qolishi o‘zbek tili uchun tipik hol sanaladi.

Analiz qilingan 235 qo‘shimchani funksiyasiga ko‘ra ajratib hisoblaganda ulardan 129 tasi so‘z yasovchi, 80 tasi forma yasovchi, 26 tasi so‘z o‘zgartuvchi affikslar ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ko‘rib o‘tilgan 83 omonimik qatorda so‘z yasovchi affikslarning ishtiroki forma yasovchilarga nisbatan, forma yasovchilarning ishtiroki esa so‘z o‘zgartuvchilarga nisbatan ortiq. Demak, omonimik munosabatning ko‘proq nisbati so‘z yasovchilarga xos. Affiksal omonimlarni funksiyasi jihatdan yuqorida ko‘rib o‘tilgan 6 tip omoqator bo‘yicha ajratganda quyidagicha kartina ko‘zga tashlanadi. (2-jadvalga qarang).

1-jadval

Tiplari	Omonimik qatorlar-affikslar ishtiroki	Omoqatorlar soni	% hisobida	Omoaf fikslar soni	% hisobida

I tip	2 affiks o‘rtasidagi omonimik munosabat	45	54,21	90	38,1
II tip	3 affiks o‘rtasidagi omonimik munosabat	21	25,3	63	27
III tip	4 affiks o‘rtasidagi omonimik munosabat	9	10,83	36	15,3
IV tip	5 affiks o‘rtasidagi omonimik munosabat	4	4,82	20	8,5
V tip	6 affiks o‘rtasidagi omonimik munosabat	3	3,6	18	7,6
VI tip	8 affiks o‘rtasidagi omonimik munosabat	1	1,2	8	3,4
	Jami	83	100	235	100

2-jadval

<i>Tiplari</i>	<i>SO‘Z yasovchilar</i>		<i>FORMA Yasovchilar</i>		<i>SO‘Z o‘zgartuvchilar</i>		<i>Omoaffikslar Miqdori</i>	
	<i>Miqdori</i>	<i>%</i>	<i>Miqdori</i>	<i>%</i>	<i>Miqdori</i>	<i>%</i>	<i>Miqdori</i>	<i>%</i>
I	48	20,4	28	11,91	14	5,91	90	38,2
II	34	14,46	21	8,93	8	3,4	63	26,3
III	20	8,5	14	5,91	2	0,85	36	15,7
IV	12	5,1	8	3,4	-	-	20	8,5
V	11	4,68	5	2,14	2	0,85	18	7,6
VI	4	1,7	4	1,7	-	-	8	3,4
Jami	129	54,84	88	33,99	26	11,01	235	100

2.2. Omonimiyada soʻz yasovchi qoʻshimchalar ishtiroki

Koʻrinadiki, soʻz yasovchi qoʻshimchalarning ishtiroki barcha tip omoqatorlarda ham ustun. Bu oʻzbek tilida affiksial omonimiya koʻproq soʻz yasovchilar hisobiga boʻlar ekan, soʻz oʻzgartuvchilar doirasida omonimik munosabat kam uchraydi, deb xulosa chiqarishga imkon beradi. Chunonchi, 83 omonimik qatorda ishtirok etgan 235 qoʻshimchadan 129 tasi ($\approx 54,8\%$) soʻz yasovchi, 80 tasi ($\approx 34\%$) forma yasovchi, 26 tasi (11%) soʻz oʻzgartuvchi affiksidir. Demak, baʼzi tekshiruvchilar qayd etgandek, omonimik munosabat soʻz oʻzgartuvchilar oʻrtasida umuman yoʻq deb boʻlmaydi, balki oz boʻlsa ham uchrab turadi.

Koʻrib oʻtilgan soʻz yasovchi, forma yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni qaysi soʻz turkumlariga mansubligi jihatidan analiz qilinganda esa soʻz yasovchilardan ot yasovchilarning, forma yasovchilardan feʼl formalarini yasovchilarning ishtiroki aktivligi aniqlandi. Buni jadvalda (3-jadvalga qarang) aniq koʻrish mumkin.

Koʻrinadiki, barcha tip (6 ta tip) omoqatorlarda otovchilar (60 ta) boshqa soʻz yasovchilarga nisbatan, sifat yasovchilar esa (39 ta) feʼl yasovchilarga (20 ta) nisbatan koʻp. Ravish yasovchilar 10 tagina boʻlib, boshqa soʻz turkumiga oid yasovchilar deyarli uchramadi. Demak, soʻz yasovchilarning omoqatorlarda ishtiroki, yaʼni ular oʻrtasidagi yoki soʻz yasovchilarning boshqa tip affiks bilan omonimligi koʻproq ot, sifat va feʼl yasovchi qoʻshimchalarga toʻgʻri keladi. Son va olmosh turkumiga oid Soʻz yasovchilarning omonimik qatorlarda qatnashishi deyarli uchramadi. Bu esa shu turkumlarda affikslarning kamligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, soʻz yasovchilarning ishtiroki koʻproq birinchi tip va ikkinchi tip omoqatorlarda ustunroq; 2 ta affiks munosabatidan tashkil topgan 45 omoqatorda (1-tip) 20 ta, 2-tipda 16 ta, 3-tipda 12 ta ot yasovchi ishtirok etgan

bo'lsa, 1- va 2- tip omoqatorlarda 26 ta, 3-, 4-5-tip omoqatorlarda esa 4 tadan (12 ta) sifat yasovchi ishtirok etgan. Anglashilishicha, so'z yasovchilarning o'zaro va boshqa tip affikslar bilan omonimik munosabatga kirishishi ko'proq 1- va 2-tip omoqatorlarda uchraydi (2 ta yoki 3 ta affiksning omonimik munosabati tarzida). Chunonchi, 2 a'zoli omoqatorda 48 ta, 3 a'zoli omoqatorda 34 ta, 4 a'zoli omoqatorda 20 ta, 5 a'zoli omoqatorda 12 ta, 6 a'zoli omoqatorda 11 ta, 8 a'zoli omoqatorda 4 ta so'z yasovchi qatnashgan. Bu faktlarni shu tip omoqatorlardagi forma yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning soni bilan qiyoslaganda omonimik munosabatlarni hosil qilishda so'z yasovchilarning aktiv ishtiroki borligi aniq, ko'rinadi. Masalan, 1-tip omoqatorda 28 ta forma yasovchi, 14 ta so'z o'zgartuvchi va 48 ta so'z yasovchi qatnashgan. Bunda 48 ta so'z yasovchidan 22 tasi (11 ta omoqator) o'zaro omonimik munosabatni tashkil etadi. 21 ta so'z yasovchi esa forma yasovchi, 5ta so'z yasovchi esa so'z o'zgartuvchi bilan shaklan duch keladi. 16 ta affiksgina forma yasovchi hamda so'z o'zgartuvchi (7 ta omoqator) o'zaro omonim bo'lib keladi.

2 ta affiks munosabatidan tashkil topgan 45 omoqator (90 ta qo'shimcha) analizining o'ziyoq o'zbek tilida affiksal omonimik munosabat ko'proq: a) so'z yasovchi — so'z yasovchi va b) so'z yasovchi — forma yasovchi tarzida bo'lishini ko'rsatadi.

6 ta tip omoqatorning har biri so'z yasovchi, forma yasovchi. so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning qatnashish nisbatini tablitsada yaqqol ko'rish mumkin (4-jadvalga qarang). Ma'lum bo'lishicha, 235 affiksdan 93 tasi (so'z yasovchi 60 ta, forma yasovchi 20 ta, so'z o'zgartuvchi 13 ta) ot turkumiga, 41 tasi (so'z yasovchi 39 ta, forma yasovchi 2) sifat turkumiga, 86 tasi (so'z yasovchi 20 ta, forma yasovchi 53 ta, so'z o'zgartuvchi 13 ta) fe'l turkumiga, 10 tasi (hammasi so'z yasovchi) ravish turkumiga, 2 tasi (forma yasovchi) soniga, 4 tasi (forma yasovchi) mimemalarga aloqador. Demak, affikslarning nisbati so'z

yasovchilarning soni jihatdan ham ot turkumi birinchi o'rinda turadi. So'z o'zgartuvchilarning ishtiroki ot va fe'l turkumida bir xil (13 tadan) bo'lsa, forma yasovchilarning soni fe'l turkumi bo'yicha ko'p (53 ta). Bu natijalar affikslarning funksiyasi, turkumi jihatdan omoqatorlarda ishtirok etish, omonimik munosabatga kirishish nisbati haqida ma'lum xulosalar chiqarishga imkon beradi. Lekin o'zaro omonim bo'lgan affikslar grammatik tabiati jihatdan (funksiyasi, turkumi) turlicha xarakterga ham ega bo'ladi. Shunga ko'ra, yuqoridagi natijalar omonimik - munosabatning bir turkum va turli turkum ko'rsatkichlari yoki bir xil funksiya yo turli funksiya bajaruvchi qo'shimchalar o'rtasida yuzaga kelish xususiyati haqida aniq xulosa chiqarish uchun kamlik qiladi. Shuning uchun biz har bir tip omonimik qatorlar guruhini, omoqatorlarni tashkil etgan qo'shimchalarni funksiyasi va turkumi jihatdan o'rganib chiqdik, 1-tip omoqator analizidan ko'rinishicha: 1) ikkita so'z yasovchi o'rtasidagi omonimik munosabat ot va sifat yasovchi qo'shimchalarda eng ko'p (18 ta affiks 9 omoqator), bittadan 2 omoqator esa, ot - ravish va fe'l - ravish tarzidagi omonimlikni tashkil etadi; 2) ikkita forma yasovchi tarzidagi omonimik munosabatning ot - fe'l, fe'l - fe'l va ot - son turkumlariga oid uchta omoqatorigina uchradi (-man I, -man II, -ov G, -ov II, -sh I, -sh II); 3) ikkita so'z o'zgartuvchi tipidagi omonimik munosabat ot - fe'l turkumlariga oid 4 ta qatordagina mavjud.

Ko'rinishicha, bir xil funksiyali affikslar orasidagi omonimik munosabat odatda ularning turli turkumga xosligi bilan xarakterlanadi. Bunday hol 1-tip omoqatorida so'z yasovchilarga xos xususiyat (22 ta so'z yasovchi - 11 ta omoqator) bo'lib, bu hol ko'proq ot - sifat yasovchilar doirasida uchraydi. Bir xil funksiyadagi qo'shimchalarning bir turkum doirasida shaklan duch kelib qolishi deyarli uchramadi. Bunday holat juda sanoqli o'rinlardagina (fe'l - fe'l formasi tarzida) uchradi. Demak, 1 - tip omoqatorlarda qatnashgan 48 ta so'z yasovchidan 22 tasi o'zaro omonim, 28 ta forma yasovchidan 6 tasi, 13 ta so'z o'zgartuvchidan

8 tasi (4 omoqator) o‘zaro omonim bo‘ladi. Qolganlari (54 tasi) funksional teng bo‘lmagan omoaffikslardir. Bunday omonimik munosabat 120ta) so‘z yasovchi — forma yasovchi, b) forma yasovchi - so‘z o‘zgartuvchi, v) so‘z yasovchi - so‘z o‘zgartuvchi tarzida uchradi.

a) **So‘z yasovchi - forma yasovchi** tarzidagi omonimik qatorlarda (21 ta) 42 affiks bo‘lib, ulardan bir turkum doirasida (7 ta omoqator) 14 ta [ot - ot tarzidagi 2 ta qator (4 ta), fe‘l-fe‘l tarzidagi 5 ta qator (10 ta)] qo‘shimcha o‘zaro omonim bo‘ladi. Demak, so‘z yasovchi bilan forma yasovchining o‘zaro omonim bo‘lishi ko‘proq fe‘l turkumi uchun xos. So‘z yasovchi - forma yasovchi tarzidagi qolgan 14 omoqatorda (28 ta affiks) 4 ta holat [1) ot-fe‘l, 2) ot - sifat, 3) sifat - fe‘l, 4) fe‘l-ravish] qayd etilib, ulardan eng kupi ot-fe‘l (16 ta affiks - 8 omoqator), keyin fe‘l-ravish (6 ta affiks - 8 omoqator), keyin fe‘l - ravish (6 ta affiks - 3 omoqator), sifat - fe‘l (4 ta affiks-2 omoqator) ligi ma‘lum bo‘ldi. Ot - sifat tarzidagi omoaffikslar esa 1 tagina omoqatorni tashkil etdi.

Funksiya bo'yicha	omoqator tiplari	Ot turkumiga oid	Sifat turkumiga oid	Fe'l turkumiga oid	Ravish turkumiga oid	Son turkumiga oid	Taqlidiy so'z, mimema	Jami
So'z yasovchilar	I	20	14	9	5	-	-	48
	II	16	12	4	2	-	-	34
	III	12	4	3	1	-	-	20
	IV	7	4	1	-	-	-	12
	V	4	4	2	1	-	-	11
	VI	1	1	1	1	-	-	4
	Jami	60	39	20	10	-	-	129
Forma yasovchilar	I	5	-	22	-	1	-	28
	II	5	-	13	-	-	3	21
	III	5	1	7	-	1	-	14
	IV	3	1	4	-	-	-	8
	V	-	-	5	-	-	-	8
	VI	2	-	2	-	-	-	4
	Jami	20	2	53	-	2	3	80
So'z o'zgartuvchilar	I	5	-	9	-	-	-	14
	II	5	-	3	-	-	-	8
	III	1	-	1	-	-	-	2
	IV	-	-	-	-	-	-	-
	V	2	-	-	-	-	-	2
	VI	-	-	-	-	-	-	-
	Jami	13	-	13	-	-	-	26
JAMI		93	41	86	10	2	3	235

Soʻz turkumi	Affikslar Funksiyasi	Omonimik, qator tiplari						Jami
		I	II	III	IV	V	VI	
OT	<i>Soʻz yasovchi</i>	20	16	12	7	4	1	60
	<i>Forma yasovchi</i>	5	5	5	3	-	2	20
	<i>Soʻz oʻzgartuvchi</i>	5	5	1	-	2	-	13
	<i>JAMI</i>	30	26	18	10	6	3	93
SIFAT	<i>Soʻz yasovchi</i>	14	12	4	4	4	1	39
	<i>Forma yasovchi</i>	-	-	1	1	-	-	2
	<i>Soʻz oʻzgartuvchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>JAMI</i>	14	12	5	5	4	1	41
FeʻL	<i>Soʻz yasovchi</i>	9	4	3	1	2	1	20
	<i>Forma yasovchi</i>	22	13	7	3	5	2	53
	<i>Soʻz oʻzgartuvchi</i>	9	3	1	-	-	-	13
	<i>JAMI</i>	40	20	11	4	7	3	86
RAVISH	<i>Soʻz yasovchi</i>	5	2	1	-	1	1	10
	<i>Forma yasovchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>Soʻz oʻzgartuvchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>JAMI</i>	5	2	1	-	1	1	10
SON	<i>Soʻz yasovchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>Forma yasovchi</i>	1	-	1	-	-	-	2
	<i>Soʻz oʻzgartuvchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>JAMI</i>	1	-	1	-	-	-	2
MIMEMA	<i>Soʻz yasovchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>Forma yasovchi</i>	-	3	-	-	-	-	3
	<i>Soʻz oʻzgartuvchi</i>	-	-	-	-	-	-	-
	<i>JAMI</i>	-	3	-	-	-	-	3
JAMI		90	63	36	20	18	8	235

5-jadval

Omoaffikslarning so‘z turkumlari bo‘yicha duch kelishi	Omoaffikslarning funksiyasi bo‘yicha duch kelishi						jami
	So‘z yasovchi So‘z yasovchi	Forma yasovchi Forma yasovchi	So‘z o‘zgartuvchi So‘z o‘zgartuvchi	So‘z yasovchi Forma yasovchi	Forma yasovchi So‘z o‘zgartuvchi	So‘z yasovchi So‘z o‘zgartuvchi	Jami
OT OT	-	-	-	4	-	-	4
SIFAT Fe‘L	-	-	-	4	-	4	8
OT Fe‘L	-	2	8	6	2	2	30
OT SIFAT	18	-	-	2	-	-	20
Fe‘L Fe‘L	-	2	-	10	-	4	16
Fe‘L RAVISH	2	-	-	6	-	-	8
OT RAVISH	2	-	-	-	-	-	2
OT SON	-	2	-	-	-	-	2
JAMI	22	6	8	42	2	10	90

2.3. So‘z yasovchilarning boshqa affikslar bilan omonimligi

So‘z yasovchi – so‘z o‘zgartuvchi tipida 5 ta omoqator bo‘lib, sifat – fe‘l va fe‘l – fe‘l tarzidagisi 2 tadan 4 ta qatorni, ot – fe‘l tarzidagisi bitta qatorni hosil qilgan (hammasi 10 ta affiks) .Forma yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi tipidagi ikkitagina omonimik qator bo‘lib, ular ot – fe‘l va fe‘l – fe‘l tarzidadir.

1-tipdagi omonimik juftlarni qanday turkumlarga oidligi (funktsiyasidan qat’iy nazar) jihatdan o‘rganilganda omonimik munosabat ot va fe‘l turkumiga oid ko‘rsatkichlarda eng ko‘p (15 qator - 30 ta affiks), kamroq ot - sifat (10 qator - 20 affiks), fe‘l - fe‘l (8 qator - 16 affiks) tarzidagi qo‘shimchalarda, ozroq sifat - fe‘l (2 qator - 4 affiks), fe‘l - ravish (4 qator - 8 affiks) tarzidagi qo‘shimchalarda uchrashini ko‘ramiz (5-jadvalga qarang).

Demak, so‘z yasovchi bilan so‘z yasovchining omonim bo‘lishi asosan ot-sifat turkumi o‘rtasida, so‘z yasovchi – forma yasovchi esa ot – fe‘l tarzida ko‘p uchraydi. Funktsiyasi e‘tiborga olinmaganda ot – fe‘l turkumida omonimik munosabat eng ko‘p (15 qator - 30 affiks) va ot - sifat (10 qator - 20 affiks), fe‘l-fe‘l (8 qator-16 affiks) tarzida uchradi.

2-tip omoqatorlarda esa 1) 3 ta so‘z yasovchi tarzidagi omonimik munosabat 4 ta omoqatorni (12 ta affiks) tashkil etib, 3 tasi ot yasovchi - ot yasovchi - sifat yasovchi, bittasi ot yasovchi - sifat yasovchi - ravish yasovchilar omonimligidir. Bu tipda ot yasovchi - ot yasovchi o‘rtasidagi omonimik holat 3 omoqatorda (6 ta affiks), ot - sifat tarzidagisi 4 ta omoqator-da uchrab, 2 a‘zolik jihatdan hisoblaganda 7 ta qator-14 affiksni tashkil etadi. 2) forma yasovchi - forma yasovchi - forma yasovchi tarzida bitta omoqator bo‘lib (-sh formasidagi 3 ta affiks) ot – fe‘l – fe‘l turkumlariga oiddir: 3) har 3 omoaffiksning so‘z o‘zgartuvchi bo‘lishi uchramadi. Demak, bu tip qatorlarda so‘z yasovchilar o‘rtasidagi omonim munosabatda ot yasovchi - ot yasovchi, ot yasovchi - sifat yasovchi holat asosiy o‘rin tutadi.

So‘z yasovchilar bilan shakl yasovchilar o‘rtasidagi omonimik munosabatlar

So‘z yasovchi affikslar bilan shakl yasovchi affikslar o‘rtasida omonimlik munosabat turli-tuman so‘z turkumlarida uchraydi. Ularning umumiy soni 21 omonimlik qatorni tashkil qilib, hammasi bo‘lib 42 affiksdir. Bu affikslarning bir turkum doirasida uchrashi 7 amoqatorni tashkil qiladi. Chunonchi ot - ot tarzidagi affikslarning omonimlik qatorda bo‘lishi 2 ta qator bo‘lib, hammasi 4 affiksdir. Fe‘l - fe‘l tarzidagi esa hammasi bo‘lib 10 ta affiksdir, qolganlari 14 tasi boshqa so‘z turkumlari bilan, qolgan amoqatorlar turli so‘z turkumlari o‘rtasidadir. Qolgan 14 tasi turli so‘z turkumlarida uchrab, quyidagicha taqsimlanadi.

1. Ot - fe‘l turkumida 8 amoqator, 16 affiks,
2. Ot - sifat turkumlarida 1 affiks
3. Sifat-fe‘l 2 ta amoqator 4 affiksini.
4. Fe‘l - ravish turkumlarida esa 3 omonim qator

Affiksni tashkil qiladi. Ko‘rinadiki affikslarning taqsimlanishi bir xil emas. Biz quyida o‘sha, ya‘ni so‘z yasovchi affikslar bilan shakl yasovchi affikslar o‘rtasidagi omonimlik munosabatni ko‘rib chiqamiz.

- a. Bu affiksning so‘z yasovchilik xususiyati va turli tuman so‘z yasovchilarning o‘zaro omonimlik munosabat hosil qilishi haqida ma‘lumot berdik. Chunonchi bu affiks 1. Fe‘llarni yasaydi. 2. Ish oti yasaydi. 3. Sifat. 4. Yana otlarni yasaydi. Bulardan tashqari bu affiks shakl yasovchi sifatida har xil shakllarni yasashda ishtirok qiladi. 5. Ravish ham hosil qiladi, masalan .

a) fe‘lning o‘ziga qo‘shilganda forma yasovchi affiks bo‘lib harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishini bildiradi. Bur/a/moq, chop/ag‘on, bila/g‘on.

b) chop/a-chop, ur/a-ur, taqir/a - tuqir kabi konstruktsiyalarda kuchaytiruvchi affiksdir.

v) bor/a-bor/a, chop/a-chop/a kabi formalarda esa ravishdosh formasini hosil qiladi.

g) ayollik jinsi (jenskiy rod) ko'rsatkichi bo'lib keladi. Masalan: Karimov/a, Salimov/a.

-ay

Bu affiks ham so'z yasovchi affiks va forma yasovchi affiks sifatida ko'zga tashlanadi. Chunonchi, ung'/ay, ko'k/ay, kabi so'zlarda sifat va ot yasaydigan bo'lsa, bor/ay, yoz/ay, tur/ay, tor/ay kabi so'zlarda fe'lning istak maylini hosil qiladi. Forma yasovchi affiks sifatida qatnashadi.

-ga

Bu affiks ham birinchi navbatdagi ravish yasovchi affiks sifatida ishtirok qiladigan bo'lsa shuningdek, u ter/ga/moq, sur/ga/moq kabi fe'llarda intensivlikni ko'rsatadi.

-gi

Bu affiks ham omonimlik affiks sifatida otlarni va nisbiy sifatlarni hosil qilishda qatnashadi. Shakl yasovchi affiks sifatida esa kelmoq fe'lga qo'shilganda hosil bo'lgan istak ma'nosini anglatish uchun qo'llanadi kel/gi/n, o'qi/gi/n. Shuningdek, u fe'llarga qo'shilganda takrorlanish, davomiylikni bildiradi. Cho'z/g'i/la/moq, yugur/gi/la/moq.

-gin

Bu affiks ham so'z yasovchi bilan forma yasovchi o'rtasidagi omonimlik munosabatni hosil qiladi. U fonetik o'zgarish sifatida yon/g'in, tosh/qin, qir/g'in, to'l/qin ot yasovchi sifatida ishtirok qilsa forma yasovchi sifatida kel/gin, o'tir/gin, ol/gin, yoz/gin, bor/gin kabi so'zlarda fe'lning buyruq maylini hosil qilishda qatnashadi.

-da

Bu affiks shakl yasovchi affiks sifatida bo'lsa ham bitsa /da, kelsa/da suzsa/da to'siqsizlik yuklamasi sifatida shakl yasovchi affiks bo'lib qo'llana oladi.

-dan

Bu affiks hol/dan, qayta/dan, tub/dan, qasd/dan, bir/dan, bexos/dan kabi soʻzlarda ravishlarni yasaydi. Shuningdek u uchta/dan, beshta/dan sonning taqsim formasini hosil qiladi.

-dir

Bu affiks qayerda/dir, kimda/dir, qanday/dir soʻzlarda gumon olmoshni yasovchi affiks sifatida ishtirok qilsa yoz/dir, kul/dir, kabi soʻzlarda feʼlning orttirma darajasini hosil qilishda qatnashgan.

-ik

Bu affiks yasovchi sifatida sifat, ot, feʼl yasashda qoʻllansa, ker/ik/moq soʻzida feʼlning oʻzlik darjasini hosil qiladi.

-in

Bu affiks omonim affiks sifatida ishtirok qilib birinchidan ot va ravishlarni yasashda qoʻllansa, ikkinchidan feʼlning oʻzlik darjasini kiy/in/moq/ yuv/in/moq soʻzlarida baʼzan majhullik darajasini hosil qilishda qatnashadi. il/in/moq.

-ir

Bu affiks ham forma yasovchi hamda shakl yasovchi sifatida qoʻllaniladi. Yasovchi sifatida feʼllarni hosil qilsa shakl yasovchi sifatida esa feʼllarga qoʻshilib orttirma daraja hosil qiladi.

-iq

Bu affiks ham birinchi navbatda ot va sifat soʻz turkumida soch/iq, och/iq, yon/iq, turkumidagi soʻzlarni hosil qilishda ishtirok qiladi. Yoʻl/iq, chin/iq feʼl kabi qoʻllaniladi, shakl yasovchi sifatida esa sin/iq/moq, osh/iq/moq, tol/iq/moq, soʻzlarida esa feʼlning oʻzlik nisbatini hosil qiladi. Buning yuqoridagi soʻzlarga omonimlik nisbatidir.

-y

Bu affiks qara/y kabi soʻzlarda feʼl yasaydigan boʻlsa shakl yasaydigan affiks sifatida unli bilan tugagan feʼllarga qoʻshilib hozirgi zamon ravishdoshini hosil qiladi.

Masalan: ish/la/y/man, o‘zi/y/man, tash/la/y/man, shuningdek, bu affiks fe’llarga qo‘shilib istak maylining shaxs birligi shaklini hosil qiladi. Undoshlardan keyin qo‘shilganda, - a bog‘lovchisi bilan keladi bora/y, kela/y, tashla/y.

-k

Bu affiks ku/ra/k, el/a/k, to‘sh/a/k so‘zlarida narsa qurol oti yasovchi sifatida gul/dir/a/k, tupira/k, biz-biz/a/k, shu ovoz bilan xarakterlanadigan predmetlarning nomini bildiradigan otlar hosil qiladi. Shakl yasovchi sifatida esa o‘tgan zamon fe’lining 1 shaxs ko‘pligini ko‘rsatadi ishladi/k kabi.

-ka

Bu affiks yasovchi sifatida otlardan fe’l yasaydi. Iskavuch shakl yasovchi sifatida esa ruscha internatsional so‘zlarida ayollik jinsini ko‘rsatuvchi so‘zlar sifatida partizan/ka, mashinist/ka, sanitar/ka fe’lining kuchaytiruvchi affiksi bo‘lib keladi. sur/ka/moq kichraytirish ma’nosini bildiruvchi ot sifatida qo‘llaniladi. Masalan: yo‘l/ka

-ki

Bu affiks yasovchi sifatida tep/ki, turt/ki so‘zlari da ot yasaydi. Past/ki, ust/ki, so‘zlarida nisbiy sifat hosil qiladi. Shuningdek, ta’kid, kuchaytirish ma’nolarini shuncha/ki, boring/ki, jami/ki, so‘zlarida qatnashadi. Qo‘shma affikslarda esa shakl yasovchi sifatida keladi.

-kin

Bu affiks ham fe’ldan sifat yasaydi kes/kin fe’liga qo‘shilib ta’kid kuchaytiruv ma’nolarini beradi to‘k/kin, ek/kin va og‘zaki nutqda ekan yordamchi fe’llarida qo‘llaniladi kelarmi/kin, borarmi/kin.

-la

Bu affiks yasovchi sifatida eng aktivdir. Shakl yasovchi sifatida quv/la, soz/la so‘zlarida harakatlanish davomligini bildiradigan morfema sifatida, poeziya tilida esa bilan so‘zining qisqargan formasi shaklida ishlatiladi. qo‘l/la tuzgan so‘zimni /qo‘l bilan/.

-lik, liq

lik affiksi bola/lik student/lik kabi soʻzlarda ot yasaydi bormoq/lik, aytmoq/lik kabi soʻzlarda maʼnoni kuchaytiruvchi affiks sifatida qoʻllaniladi.

-liq ham shunday affiksidir ayri/liq, bor/liq kabi soʻzlarda abstrakt ot yasaydi. Osigʻ/liq, yopigʻ/liq, soʻzlarida esa

-gan morfemasi anglatgan maʼnoni berishga yaqinlashadi.

-m

Bu affiks alda/m, chida/m, toʻpla/m, soʻzlarida ot yasovchi affiks sifatida qoʻllansa, boʻtalarim, ona/m, ota/m soʻzlarida esa I shaxs birlikni koʻrsatuvchi affiks sifatida keldi/m, koʻrdi/m, yurdi/m soʻzlarida esa I shaxs koʻplikni bildiruvchi shaxs-son affiksidir.

-ma

Bu affiks gazla/ma, yukla/ma soʻzlarida ot boʻya/ma, yasa/ma, soʻzlarida sifat yasovchi affiks sifatida koʻrinadi. Shuningdek, u forma yasovchi sifatida feʼlning boʻlishsizlik shaklini koʻrsatadi. bor/ma/di, yoz/ma/di, oʻqi/ma/di.

-moq

Bu affiks ham yasovchi sifatida qoʻsh/moq, qas/moq soʻzlarida narsa predmet nomini hosil qiladi. Shakl yasovchi sifatida feʼllarning infinitiv va harakat nomi shaklini hosil qiladi.

-on

Bu affiks qoʻzgʻal/on, soʻzida proses otini yasaydi oʻgʻl/on, toʻz/on soʻzlarida esa kichraytirish maʼnosini bildiradigan otlardir.

-oq

Bu affiks sifat yasashda baqir/oq ot yasashda oʻr/oq, yot/oq qoʻllansa bosh/oq soʻzlarida kichraytirish maʼnosini hosil qiladi.

-uv

Bu affiks yoz/uv ishl/ov soʻzlarida ot yasaydi, bor/uv, kel/uv feʼlning infinitiv shaklini hosil qiladi.

-xon

Bu affiks shaxsni ko'rsatuvchi ot yasaydi. Jurnal/xon, Mushtum/xon, shuningdek u shakl yasovchi sifatida xotin - qizlar nomiga qo'shilib erkalash ma'nosini bildiradi. Salima/xon, Jo'ra/xon.

-sa

Bu affiks qizil/cha, ko'k/cha so'zlarida ot yasovchi sifatida Yevropa/cha, yangi/cha, so'zlarida ravish yasovchi sifatida qo'llansa, zarra/cha, yigit/cha, ari/cha, so'zlarida esa kichraytirish erkalash ma'nosida qo'llanadi.

-chi

Bu affiks shaxs ot i/ yasovchi affiks bo'lib shu ma'noda mahsuldir. So'roq kuchaytiruv taajjub ma'nolarini anglatuvchi yuklama sifatida qo'llaniladi.

-chiq

sirpan/chiq, yupan/chiq, so'zlarida sifat yasovchi affiks sifatida ishlatiladi. U ko'pgina so'zlarga qo'shilib subyektiv baho shaklini hosil qiluvchi qora/chiq, qop/chiq, kichraytirish ma'nosini bildiradigan forma yasovchi affiksdir.

Yuqoridagi affikslarning omonimik xususiyati ko'rsatadiki, o'zbek tilida so'z yasovchi affikslarning shakl yasovchi affikslariga omonim bo'lib kelish holati so'z yasovchilar bilan so'z yasovchilarning o'zaro omonim bo'lib kelish holatlariga nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Lekin baribir ularning sostavi ham o'zbek tili grammatik sistemasida o'ziga xos o'rni borligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek tilida shakl yasovchi affikslar ham anchagina A.A.Jo'raboyevaning axborot berishicha affiks omonimiya munosabatida shakl yasovchi affikslarning xatosi bor. Bu affikslar hammasi shakl yasovchi affiks sifatida qatnashadi. Ular quyidagilardan iborat.

-a fe'llarning o'ziga qo'shilganda harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi intensivlikni bildiradi. bur/a/moq.

2. chop/a-chop, taqir/a-tuqur kuchaytirish funksiyasini bajaradi.

3. Fe'lning ravishdosh formasini hosil qiladi. bor/a - bor/a, chop/a-chop/a.

ikki, uch, to'rt, besh sonlar/iga qo'shilib sonning jamlovchi turini hosil qiladi. uch/a/la, ikk/a/la, to'rt/a/la, besh a/la.

2. Fe'llarga qo'shilib intensivlik ma'nosini ifoda qiladi quv/a/la/moq, qayt/a/la/moq.

-gina

Bu affiks 1 otning erkalash, kichraytirish shaklini hosil qiladi bola/gina, qiz/gina sifatning subyektiv shaklini hosil qiladi yaxshi/gina, katta/gina, yengil/gina, issiq/gina, jajji/gina, ravishda baho shaklini hosil qiladi. Asta/gina, hali/gina, ko'p/gina, endi/gina, oz/gina.

2. Chegaralov yuklamasi vazifasini bajaradi faqat/gina, sekin/gina, biz/ning/gina, sizlarning/gina.

-dir

Bu affiks kesimlik formasi sifatida ishtirok qiladi va fe'ldan boshqa so'z turkumlariga qo'shiladi. injiner/dir, akam/dir, o'quvchi/dir.

2. Fe'l o'zak negizlaridan uning orttirma darajasi shaklini hosil qiladi. yoz/dir, kul/dir, to'l/dir, kun/dir, tol/dir

-in

1. Bu affiks fe'lning o'zlik ba'zan majhullik darajasini hosil qiladi. Kiy/in/moq, yuv/in/moq.

2. Yozay/in, o'qiy/in, boray/in, kabilarda ma'noni kuchaytiruvchi sifatida qatnashadi.

-ish

Bu affiks 1. undosh bilan tugagan fe'l negizlariga qo'shilib harakat nomi hosil qiladi. Chiq/ish, ur/ish, yur/ish, kel/ish.

2. Fe'llarga qo'shilib uning birlik darajasini hosil qiladi. gap/la/sh/ma/di, yur/ish/di, bor/ish/di.

3. Sifatlarga qo'shilib belgining ozligini bildiruvchi affiks oq/ish, ko'k/ish, sar/g'ish sifatida keladi.

4. Bu affiks fe'lining o'zlik darajasini hosil qiladi bur/ish/di, ol/ish/di.

-y

Bu affiks 1. unli bilan tugagan fe'llarga qo'shilib hozirgi zamon ravishdoshini hosil qiladi ish/la/y/man, tash/la/y/man.

2. Fe'ning istak maylining 1 shaxs birlik shaklini hosil qiladi. bora/y, kela/y, o'qi/y, boshla/y, tashla/y

-ka.

Bu affiks 1. ruscha internatsional so'zlarda ajratilib, ayollik jinsiga tegishlilikni bildiradi student/ka, grajdan/ka, mashinist/ka, partizan/ka.

2. Yo'l/ka kabi so'zlar sostavida kelib kichraytirish ma'nosini bildiradi.

3. Fe'ning kuchaytiruvchi affiksi bo'lib keladi. M: sur/ka/moq

-kach

1. Fe'ning ravishdosh shaklini hosil qiladi tuk/kach, tik/kach

2. Otlarga qo'shilib kichraytirish ma'nosini bildiradi. taxta/kach, o'r/kach.

-kina

1. Ot va boshqa so'zlarga qo'shilib kichraytirish erkalash chegaralash ma'nosini bildiradi. Go'dak/kina, erkak/kina, balak/kina.

2. Sifatlarning subyektiv baho shaklini hosil qiladi. Chuvak/kina, sergak/kina, jindak/kina, hurkak/kina.

3. Otlarga qo'shilib chegaralash ajratish ma'nolarini bildiradi. bezgak/kina, terak/kina, ko'proq/qina, handalak/kina

-lan

1. Fe'llarga qo'shilib o'zlik daraja formasini hosil qiladi. shod/lan/di, ot/lan/di, ikki/lan/di, yuk/lan/di.

2. Son/ga qo'shilib jamlikni bildiruvchi ikkov/lan, to'rtov/lan, oltov/lon. Bu shakl arxaik formadir.

-on

1. otlarga qo‘shilib kichraytirish ma’nosini ifodalaydigan unumsiz shakl yasovchi affiks o‘g‘l/ on, to‘z/on

2. Eski o‘zbek tilida b bilan tugagan ravishdoshlarga qo‘shilib kichaytirish funksiyasini bajaradi. Qichqirib/on.

-chil

1. otlarga qo‘shilib, xususiyatning, ortiqligini bildiruvchi affiks dard/chil, xalq/chil, ep/chil, iz/chil.

2. Sifat va ravishga qo‘shilib, ozaytirish, kuchsizlik ma’nosini bildiradi. Ko‘k/chil, kam/chil, oq/chil,

-sh

1. fe’llarning birgalik darajasini hosil qiladi. ayb/la/sh/di, quchoq/la/sh/di.

2. Fe’lning o‘zlik formasini hosil qiladi. bur/i/sh/moq, yuri/sh/moq, og‘ir/la/sh/moq, Umuman shakl yasovchi bilan shakl yasovchining o‘zaro omonim bo‘lib kelish holatlari o‘zbek tilida anchagina. Bu holat shuni ko‘rsatadiki shakl yasovchi affiks o‘zining alohida o‘rniga ega.

So‘z yasovchi qo‘shimchalarning so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar bilan o‘zaro omonimlik munosabati so‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan so‘z yasovchi qo‘shimchalarning so‘z yasovchi affikslar bilan shakl yasovchi affikslarning omonimlik munosabatiga ko‘ra nisbatan kam miqdorni tashkil qiladi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan so‘z o‘zgartuvchilarning o‘zaro omonimlik munosabati beshta omoqatorlarni tashkil qiladi.

Ular asosan sifat fe’l, fe’l - fe’l, so‘z turkumlarida ikkitadan omoqatorni tashkil qilib, har qaysi juftda to‘rttadan affiksdan to‘g‘ri keladi. Ot fe’l turkumlarida esa birgina omoqator uchrab, ularning soni ikkita omoqatorni tashkil qiladi. Shu affikslarning omoqator bo‘lib kelishi quyidagilardan iborat

-ga

Bu affiks III shaxs egalik affiksi bilan birlikda kelib sifat va ravish ba'zan otlardan ravish yasaydi.

Masalan: yalpsi/ga, tikkasi/ga, aylanasi/ga, ko'r - ko'ronasi/ga, qatorasi/ga shuningdek, bu affiks jo'nalish kelishigining qo'shimchasidir: uyga/ maktabga/.

-di affiksi

Bu affiks o'zlik darajasidagi fe'lga qo'shilib ot yasovchi vazifasini bajaradi. kuyin/di, kelgin/di, cho'kin/di, chirin/di, qirin/di, yuvin/di. Shuningdek, bu affiks harakatning hozirgi, kelasi yoki o'tgan zamonda bajarilganligi yoki bajarilmaganligini ko'rsatadigan tuslovchi affiks o'qiy/di, yoza/di, tara/di, o'qi/di, yoz/di, kel/di.

-i

Bu affiks ham boshqa tillardan kirgan so'zlarda uchraydi o'rin joyga munosabatini bildiruvchi sifatida qo'laniladi. kashmir/i, qobil/i, xitoy/i, samarqand/i, shuningdek, III shaxs birgalikda egalik affiksidir: daftari, kitobi.

-m

Bu affiks 1.fe'l o'zaklaridan ot yasaydi, kiyi/m, bili/m, tili/m, uni/m, bo'li/m, tiki/m, teri/m, ajiri/m, kiri/m, chiqi/m, kechir/im, o'ri/m, bosim/m.

2.Sifatlar va daraja miqdor otini yasaydi qis/m, ayiri/m, chiqi/m.Shuningdek 1 shaxs egalik affiksidir vatani/m, shahri/m, ko'zi/m, gulzori/m, nigori/m.

-k

Bu affiks 1. Fe'l o'zaklaridan narsa qurol natija yoki holat oti yasaydi kurak/k, ela/k, to'sha/k, tila/k, beza/k, tira/k.

2. Mimemalardan shu ovoz bilan xarakterlanadigan harakatni bajaruvchi predmet nomi yasaydi: pirpira/k, biz/biza/k, guldira/k, shuningdek, bu fe'l so'z o'zgartuvchi affiks sifatida o'tgan zamon fe'lining I shaxs ko'pligini ko'rsatuvchi affiksdir. U o'tgan zamon I shaxs ko'pligiga qo'shiladi ishladi/k, bordi/k, yozdi/k.

-ka

Bu affiks yasovchi sifatida otlardan fe'l yasaydi: is/ka, shuningdek, bu affiks k tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shiladigan ilgak/ka, changgak/ka kabi qo'shimchalarda jo'nalish kelishigining qo'shimchasidir.

-si

Bu qo'shimcha passiv holda bo'lsa ham boshqa so'zlardan fe'l yasaydi alah/si, bur/si, garang/si, shuningdek, bu affiks III shaxs birligini ko'rsatuvchi egalik affiksidir ular ko'proq unli tovushlardan keyin qo'shiladi. uka/si, ona/si, bobo/si, jo'ra/si.

-qa

Bu affiks fe'ldan sifat yasovchi affiksidir qisqa xalq/qa, shuningdek u,k,g tovushlari bilan tomon bo'lgan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi sifatida qo'shiladi. qirg'oq/qa, boq/qa, toq/qa.

1. Bu Affiks xuddi shunday shakllardan ot yasaydi g'ov/g'a va jo'nalish kelishigi qo'shimchasidir.

Xullas, so'z o'zgartiruvchi affikslar nisbatan oz bo'lsa ham so'z yasovchi affikslarga omonim bo'lib kela oladigan affikslardir va ularning nisbati quyidagichadir.

Funk siyasi bo'yicha	Omonim qator tiplari K/b	ot turkumi oid	Sifat turk. oid	Fe'l turku miga oid	ravish turk. oid	Son turk. oid	Taqlid so'z,mime ma	Jami
So'z yasov chi lar	I	10	14	9	5	-	-	48
	II	16	12	4	2	-	-	34
	III	12	4	3	1	-	-	20
	IV	7	4	1	-	-	-	12
	V	4	4	2	1	-	-	11
	VI	1	1	1	1	-	-	4
	Jami	60	39	20	10	-	-	129

Funk siya si bo'yicha	Omonim qator	Oid turk. Oid	Sifat turk oid	Fe'l turk. oid	Ravish turk. oid	Son turkumi oid	Taqlid Mimema	Jami
So'z o'zgar tuvchi lar	I	5	-	9	-	-	-	14
	II	5	-	3	-	-	-	8
	III	1	-	1	-	-	-	2
	IV	-	-	-	-	-	-	-
	V	2	-	-	-	-	-	2
	VI	-	-	-	-	-	-	-
	Jami	13	-	13	-	-	-	126

Shakl yasovchi bilan shakl yasovchining o'zaro munosabati o'zbek tilida nihoyatda oz uchraydi, chunki bu affikslarning shaklan teng kelib qolishi nisbatan nihoyatda kam uchraydigan hodisadir. Ular asosan uch affiks doirasidagina uchrashi qayd qilindi. Bular - man, -ov, -sh affikslaridir.

-man

1 Fe'llarda I shaxs birligini ko'rsatadigan affiks sifatida qo'llanadi yoza/man, bora/man, ishlay/man, suza man.

2. Bu affiks otlarga ham qo'shilib kesim formasini ifoda qiladi ishchi/man, kolxozchi/man, pedagog/man, ikkinchi affiks -ov affiksdir. Bu affiks ham: 1. sonlarga qo'shilib jamlik, to'da, yig'indini bildiradi ikk/ov, uch/ov, besh/ov, to'rt/ov.

2. Bir so'ziga analogiya yo'li bilan qo'shilib bir/ov hozirgi davrda u forma yasovchi affiks doirasidan chiqib, ajralmas birlikka aylangan.

-sh

Bu affiks 1. Fe'ldan birgalik daraja hosil qiladi. aybla/sh/di, quchoqla/sh/di, qara/sh/di, uchra/sh/di.

2. Fe'ning o'zlik formasini hosil qiladi burishmoq, ko'ri/sh/moq, og'irla/sh/moq.

3. Forma yasovchi bilan soʻz oʻzgartuvchi oʻrtasidagi omonimlik munosabat ikkita omonimlik qatorida uchraydi ular ot – feʼl va ot feʼl tarzida uchraydi .

-ga

1. otlarda joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi hisoblanadi. uy/ga, maktab/ga, hisob/ga, bogʻ/ga.

2. ter/ga/moq, sur/ga/moq tipidagi feʼllarda intensivlik koʻrsatkichi uchun xizmat qiladi.

-si

Bu affiks 1. III shaxs egalik affiksini koʻrsatuvchi qoʻshimcha ona/si, uka/si, ota/si bobo/si.

Bu soʻzlarda u soʻz oʻzgartuvchi sifatida qatnashadi.

2. Ola/si, oʻla/si, kela/si, kabi soʻzlar tarkibida sifatdosh koʻrsatkichi boʻlib, maʼno va funksiyasi jihatdan –gan affiksiga toʻgʻri keladi.

3. Soʻz oʻzgartuvchi bilan soʻz oʻzgartuvchining omonim boʻlib kelishi uchraydigan hodisadir. Xususan ular quyidagilarda uchraydi.

-ing

Bu affiks II shaxs birlikdagi egalik affiksi.

2. Feʼllarda II shaxs hurmat maʼnosini bildiruvchi feʼl shaklidir. Ol/ing, bor/ing, yozing, ishlat/ing.

-ng

Bu affiks 1. unli tovushlar bilan tugagan soʻzlardan soʻng qoʻshilib egalik affiksi I shaxs birligini koʻrsatadi, Ota/ng, ona/ng.

2. Unli bilan tugagan feʼllarga qoʻshilib II shaxs koʻpligi yoki hurmatini bildiradi. ishla/ng, boshla/ng.

Umuman yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, oʻzbek tilida affikslarning shakliy jihatdan teng kelib qolib semantik jihatdan boshqa-boshqa boʻlib qolishi hamma qatorlarda bir xil emas. Ularda soʻz yasovchi bilan shakl yasovchining oʻzaro omonimlik munosabati soʻz yasovchi bilan soʻz yasovchining munosabatiga nisbatan

kam soʻz yasovchi bilan soʻz oʻzgartuvchi koʻrsatilgan yuqoridagi tipga nisbatan nihoyatda kam uchraydi. Shularga qarab aytish mumkinki affiksning funksiyasiga omonimlik munosabatiga koʻra hamma soʻz turkumlarida bir xil emas.

III. BOB. OMONIMIKA AFFIKSLARNING KONTEKSTUAL XUSUSIYATLARI VA ULARNI O‘QITISH USULLARI

3.1. FUNKSIYASIGA KO‘RA OMONIMIK AFFIKSLAR

Funksional teng bo‘lmagan affikslarning formal teng kelishi bu tip uchun ham asosiy xususiyat hisoblanadi. Lekin har uchala affiksdan ham funksiya jihatdan farqli bo‘lgan ikkita omoqator ham uchradi. Bulardan biri fe‘l yasovchi – fe‘l formasini yasovchi-so‘z o‘zgartuvchi (tuslovchi) tarzida, ikkinchisi ot-sifat-fe‘l tipidagi omoqatordir. Ikkita bir xil funksiyadagi affiks bilan bitta boshqa funksiyadagi affiksning formal teng kelishi ko‘proq uchraydi.

Bunda asosan 4 holatni kuzatish mumkin:

1. Ikkita so‘z yasovchi bilan bitta forma yasovchi o‘rtasidagi omonimlik 7 ta omoqatorda (21 ta affiks) kelib, ko‘proq ot sifat, fe‘l turkumlariga oid elementlarga to‘g‘ri keladi [ot – ot – sifat - 2 qator (6 ta affiks), ot – sifat – fe‘l - 3 qator (9 affiks), ot – ot – fe‘l - bitta qator (3 affiks), sifat – sifat – fe‘l bir qator (3 affiks) Ko‘rinadiki, bu yerda ot - sifat (5 ta qator—10 affiks), ot - ot (3 qator 6 affiks) tipidagi omonimik munosabat ustun.

2. Ikkita forma yasovchi va bitta so‘z yasovchi o‘rtasidagi omonimlik 3 qator (9 affiks)ni tashkil etib, fe‘l-fe‘l - taqlidiy so‘z tipidagi 2 qator (6 affiks), va ot-ravish – fe‘l tarzidagi 1 qatorni yuzaga keltirgan.

3. Bitta so‘z yasovchi va ikkita so‘z o‘zgartuvchi omonimligi esa 1 ta qatorda uchrab, ot - ot - fe‘l tarzidagi munosabatni hosil qilgan.

4. Bitta forma yasovchi va ikkita so‘z o‘zgartuvchi o‘rtasidagi omonimlik ot-fe‘l - taqlidiy so‘z tipidagi bitta qatorda uchradi.

Umuman, ikkinchi tip omoqatorlarda ot - ot sifat (5 qator—15 affiks), ot – sifat – fe‘l (4 qator—12 affiks) tipidagi omonimik munosabat boshqa tarzdagilarga

nisbatan ko‘p. Shuni aytish kerakki, bu tip omoqatorlarda 12 ta affiks (6 qator) ot-ot, 11 ta affiks fe‘l – fe‘l tarzidagi (5 qator) omonimik munosabatga kirishgan. Ikki a‘zoli qator sifatida qaralsa, ot-sifat, ot-fe‘l, sifat-fe‘l tipidagi omonimik munosabatlar soni yanada ortadi (6-jadvalga qarang).

3-tip omonimik qatorlarda funksional teng bo‘lgan omonimik guruh yo‘q. 9 ta omonimik qatordan 7 tasi (28 ta affiks) so‘z yasovchi va forma yasovchilar o‘rtasidagi shakliy tenglikdan iborat. Shulardan 18 tasi so‘z yasovchidir. Bunda 3 ta so‘z yasovchining o‘zaro omonim bo‘lib kelishi 4 ta omoqatorida; 2 ta so‘z yasovchining omonim bo‘lib kelishi ham 4 ta qatorida, bir qatordagina so‘z o‘zgartuvchi ko‘rsatkich ishtirok etgan. Umuman, 20 ta so‘z yasovchidan 18 tasi (7 ta omoqator), 14 ta forma yasovchidan 10 tasi o‘zaro shaklan duch keladi (7 jadvalga qarang).

Demak, 3-tip omonimik guruhlarda funksional teng affikslarning omonimligi ko‘proq bo‘lib, asosan so‘z yasovchilar hisobiga to‘g‘ri keladi. Shuni aytish kerakki, ulardagi omonimik munosabatni ikki a‘zoli omoqator tarzida qaralsa, so‘z yasovchi bilan forma yasovchilarning o‘zaro omonim bo‘lish hollari ham bundan kam bo‘lmaydi. Binobarin, bu tip omonimik guruhda asosan so‘z yasovchi bilan so‘z yasovchining, so‘z yasovchi bilan forma yasovchining ko‘proq shaklan duch kelishi ko‘zga tashlanadi.

Bu affikslarga qaysi turkumga xosligi jihatdan yondashilganda esa, 18 ta ot turkumiga mansub ko‘rsatkichining hammasi (8 omoqator), 11 ta fe‘l turkumiga xos qo‘shimchadan 8 tasi (3 qator - bir qatorida 2 ta so‘z yasovchi va 2 ta forma yasovchi o‘rtasidagi omonimlik mavjud) o‘zaro teng kelganligi aniqlandi. Demak, bu yerda ham ot turkumiga oid ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro formal tenglik birinchi o‘rinda turadi.

Turli turkum ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi omonimlik esa asosan ot-sifat (12 ta affiks - 4 omoqator) va ot - fe‘l (17 ta affiks - 5 omoqator) tarzidagi munosabatdir.

4 - va 5 - tip (5 va 6 a'zoli) omoqatorlardagi qo'shimchalar nisbatida ham xuddi shunga o'xshash holat kuzatiladi (8-jadvalga qarang).

Ko'rinadiki, 6 ta tip omoqatorlarning alohida-alohida analizi ham omoaffikslarning umumiy soni bo'yicha omonim munosabatga kirish nisbatiga ko'ra chiqarilgan natijalarga mos keladi.

6-jadval

Omoaffiks so'z turk. bo'yicha duch kelishi	Omonimik qatorga kirgan omoaffikslarning funksiyasi bo'yicha duch kelishi									
	So'z yas. So'z yas. So'z yas.	Forma yas. Forma yas. Forma yas.	So'z yas. So'z yas. Forma yas.	So'z yas. Forma yas. Forma yas.	So'z yas. So'z yas. So'z o'zg.	So'z yas. So'z o'zg. So'z o'zg.	Forma yas. Forma yas. So'z o'zg.	Forma yas. So'z o'zg. So'z o'zg.	So'z yas. Forma yas. So'z o'zg.	Jami
Ot Ot Ot	-	-	-	-	3	-	-	-	-	3
Ot Ot Sifat	9	-	6	-	-	-	-	-	-	15
Ot Ot Fe'l	-	-	-	-	-	3	3	-	-	6
Sifat Sifat Fe'l	-	-	3	-	-	-	-	-	-	3
Ot Sifat Fe'l	-	-	9	-	-	-	-	-	3	12
Fe'l Fe'l Fe'l	-	-	-	-	-	-	-	-	3	3
Ot Sifat- ravish	3	-	-	-	-	-	-	-	-	3
Ot Ravish Fe'l	-	-	-	3	-	-	-	-	-	3

Fe'l Fe'l Mimem a	-	-	-	6	-	-	-	-	-	6
Fe'l Fe'l Mimem a	-	-	-	6	-	-	-	-	-	6
Ot Fe'l Mimem a	-	-	-	-	-	-	-	3	-	3
Ot Fe'l Fe'l	-	3	3	-	-	-	-	-	-	6
JAMI	12	3	21	9	3	3	3	3	6	63

3.2. OMONIMIK AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI

Dars ishlanma

Kurs: 1

Vaqt: 80 minut

Mavzu: Qo'shimchalarda shakldoshlik

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga qo'shimchalardagi shakldoshlik xususiyatlari haqida ma'lumot berish;
- b) **tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.
- c) **rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'z ustida mustaqil ishlashini muntazam shakllantirib borish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi

Darsning jihozlanishi: Darslik, tarqatma material, kompyuter, slayd, elektron doska yoki proyektor.

Darsning metodi: "Aniqliklar jadvali", "Moslikni aniqlang", ispring dasturi asosidagi ko'p variantlilik testi.

Darsning rejasi:

T/r	Dars rejasi	Vahti
1.	Tashkiliy qism. Salomlashish. Davomatni aniqlash. Tozalikni tekshirish.	2 daqiqa
2.	Uyga vazifani so‘rash.	25 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni.	20 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash.	30 daqiqa
5.	Baholash.	3 daqiqa
6.	Uyga vazifa berish.	1 daqiqa

Darsning borishi:

T/r	So‘zlar	bo	be	no	ser	ba	xush
1	Umid						
2	Davlat						
3	Xavotir						
4	Gap						
5	Vaqt						
6	Haybat						
7	Rozi						
8	Hosil						
9	Xabar						
10	Qulay						
11	Farosat						

Tashkiliy qism: a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) tozalikni tekshirish;

Uyga vazifa so‘rash: O‘quvchilarga oldingi darsda old qo‘shimchalar va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan edi. Uyga vazifa qilib **186-mashq** berilgan ularning qay holatda bajarilganligi tekshiriladi. Undan keyin esa qaysi so‘zlar o‘zidan oldin qanday qo‘shimcha qabul qilishini talabalar **“Aniqliklar jadvali”** ni to‘ldiradi. Bunda bir so‘zga ikki uch qo‘shimchani ham qo‘shish bo‘lgan holatlar

uchraydi shu sababli ham ular qoʻshilishi mumkin boʻlgan qoʻshimchalarning tagiga plus belgisini qoʻyib chiqadi.

Javoblar koʻzdan kechirilgach yangi mavzu tushuntirishga oʻtiladi. Undan keyin esa yangi mavzu tushuntirilmasdan oldin ular ikkita guruhga ajratiladi va har ikkala jamoaga darslikdagi 1-2-topshiriq beriladi. 1-toshiriqda jadvaldagi berilgan ustunlarni toʻldirishlari kerak boʻladi. Toʻgʻri bu mavzuni endi oʻtayapdilar lekin ular 6-sinf Ona tili darsligida qoʻshimchalar haqida maʼlumot olishgandi. Shu sababli ham ularni esga tushurgan holda topshiriqni bajaradilar. Jadvalni toʻldirish orqali oʻquvchilar ham eslaydilar hamda yangi mavzu bilan bagʻlanadi va mashqdan qoidaga qarab borilishini taminlaydi.

Soʻzlar	Soʻrogi	Soʻz turkumi	Asosi	Qoʻshimchasi
Oʻyinchoq	Nima?	Ot	Oʻyin	-choq
Erinchoq				
Pistirma				
Boʻgʻma				
Yigʻin				
Toʻlin				

2-topshiriq. Yomgʻirli – seryomgʻir soʻzlaridagi –li va ser qoʻshimchalari bildirayotgan maʼnolarini yozing.

Yangi mavzu bayoni: Shakldoshlik nafaqat leksemalarga, balki qoʻshimchalarga ham xos xususiyat sanaladi. Qoʻshimchalarning ayrimlari ifodalanishiga koʻra aynan bir-biriga oʻxshasa-da, mazmun-mohiyati bilan keskin farqlanadi.

Masalan, *-in* qoʻshimchasi:

-in qo'shimchasi			
Ot yasovchi	Sifat yasovchi	Ravish yasovchi	Fe'lning nisbat shaklini yasovchi
-tiqin -yig'in -chaqin	-to'lin -erkin -yashirin	-ostin-ustin -birin-ketin -qishin-yozin	-ilin -ko'rin -qilin

Bunday qo'shimchalar o'zbek tilida ko'plab uchraydi. *-ma, -chi, -a, -dor, -ch, -(i)sh, -ar, -ik, -k, -ish, -qin, -chaq, -(a) y. -siz* kabi qo'shimchalarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Shakldosh qo'shimchalar quyidagi ko'rinishda uchraydi

➤ **So'z yasovchilar.**

qalamdon (ot)	qadrdon (sifat)
toshqin (ot)	jo'shqin (sifat)
teпки (ot)	kechki (sifat)
qatlama (ot)	bo'g'ma (sifat)
o'roq (ot)	qo'rqqoq (sifat)
yoshlik (ot)	sirdaryolik (sifat)
yuzsiz (sifat)	so'zsiz (ravish)
yugurik (sifat)	ko'rik (ot)

➤ **So'z yasovchi qo'shimcha so'z shakli yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'ladi.**

kelinchak (erikalash, hurmatlash shakli)	erinchak (sifat yasovchi)
gapirma (fe'lning bo'lishsiz shakli)	burma (sifat yasovchi)
yuzlab (chama son shakli)	haftalab (ravish yasovchi)
qizcha (kichraytirish shakli)	erkakcha (ravish yasovchi)
Dilafro'zxon (hurmat shakli)	kitobxon (ot yasovchi)
do'sti (III shaxs, birlik shakli)	boyi (fe'l yasovchi)

➤ **Har qanday holatda so'z shakli yasaydi.**

oqish (ozaytirma shakli)	kelish (harakat nomi)
otam (egalik shakli)	ko'rdim (shaxs-son shakli)
ukang (egalik shakli)	bording (shaxs-son shakli)

Yangi mavzuni mustahkamlash:



187-mashq. Qo'shimchalar yordamida so'zlar yasang va ulardagi qo'shimchalarga xos bo'lgan shakldoshlikni izohlang.

Namuna:

Tin+ch, (sifat yasovchi)

Sevin+ch (ot yasovchi)

	<i>Misollar yozing</i>	<i>izoh</i>
-t	_____	
-ch	_____	
-uq	_____	
-gi	_____	
-un	_____	

188- mashq. Gaplarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing.

Hunar ado bo'lmas boylikdir. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u xilvat va pinhoniylilikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozonolmaydi. Ishsizlik illatning uyasi. Barvaqt turishga odatlaning, baraka topasiz. Vafoli odamning do'stlari ham samimiy bo'ladi. Bevafo do'stdan jabrli dushman afzal.

Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nnglimdin o'zga maluami asror topmadim.

(Bobur)

Vafosizda hayo yo'q. hayosizda vafo yo'q. *(Navoiy)* Qiziga qalamdon sotib oldi. Bilimdon va tadbirkor, raqobatbardosh yoshlar Vatanimizning kelajagi sanaladi.

Topshiriqlar

- ✓ Matndagi so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.
- ✓ Qo'shimchalarni so'z yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalarga ajrating.
- ✓ So'z yasovchi qo'shimchalar ichidan shakldosh qo'shimchalarni ajrating.

189-mashq. *Ot yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan so'zlarni toping.*

Ot yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan so'zlarni toping.

- chiziq
- tiniq
- bosqin
- sotqin
- sezgi
- qadimgi
- otashin
- ekin

O'quvchilarning bilimini baholash va darsga xulosa yasash.

Uyga vazifa: Qo'shimchalar haqida umumiy ma'lumot yig'ing, shakldosh qo'shimchalarga misollar to'plab ularga gaplar tuzing.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida bir xil funksiyali affikslar o‘rtasidagi omonimik munosabat ko‘proq so‘z yasovchi qo‘shimchalar doirasida uchraydi. Forma yasovchi affikslar doirasida shaklan teng kelish holatlari esa so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarga nisbatan ko‘p hisoblanadi. So‘z o‘zgartuvchilar o‘rtasida omonimik munosabat kam uchraydi. Bir xil funksiyali qo‘shimchalarning shaklan duch kelish holatlarini so‘z turkumlari bo‘yicha (har bir so‘z turkumini alohida-alohida) olib qaraganda esa, so‘z yasovchilar o‘rtasidagi omonimik munosabat asosan ot turkumi (sifat va fe‘lda kamroq)da uchradi. Shuni aytish kerakki, bir xil funksiyali affikslarning bir turkum doirasida shaklan duch kelishi juda kam bo‘lib, borlari ham ko‘proq ot turkumiga mansub ayrim so‘z yasovchilargagina xos. Forma yasovchilar doirasida esa bu hol deyarli kuzatilmadi. Shuningdek, bir xil funksiya va bir xil turkum doirasidagi affiksal omonimik holatlar uncha ko‘p emas. Borlari asosan, ikkita ko‘rsatkich o‘rtasidagi omonimik munosabatdir. Biroq bir funksiyali affikslarning omonimik munosabatga kirishish chegarasi (ya‘ni shu tip omoqatorda formalarning soni) bir holdagina beshtagacha, bir turkum doirasida esa 4 tagacha bo‘lishi mumkinligi, ham funksiyasi, ham turkumi bir xil bo‘lgan affikslarning teng kelish soni 3 tagacha (asosan ot turkumi yasovchilarida) uchrashi kuzatildi.

Funksiya jihatdan bir xil bo‘lgan affikslarning omonimik qatorlarni yuzaga keltirishi odatda turkum jihatdan turlicha bo‘lgan qo‘shimchalar o‘rtasida uchraydi. Bir xil omonimik munosabatda har xil turkumga oid so‘z yasovchilarning shaklan duch kelishi birinchi o‘rinda turadi. Hamda ular asosan ot va sifat, ot va fe‘l turkumlari doirasida uchraydi. Forma yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi affikslarning turli turkum doirasida omonim bo‘lish hollari esa sanoqli so‘zlardagina uchraydi.

Funksiyasi jihatdan farqli qo‘shimchalarning omonimik qatorlarni yuzaga keltirishi o‘zbek tili affiksali omonimiyasi uchun asosiy xususiyat sanalib, asosan so‘z yasovchilar bilan forma yasovchilar o‘rtasida kuzatiladi.

Umuman, affikslarning o‘zaro omonimik munosabatlarni yuzaga keltirish hollarini (ularning funksiyasidan qat’iy nazar) so‘z turkumlari bo‘yicha umumlashtirilganda esa quyidagilar aniqlandi.

Bir turkum doirasida affikslarning (funksiyasidan qat’iy nazar) shaklan duch kelish holatlari asosan ot (ot-ot), fe‘l (fe‘l – fe‘l), sifat (sifat-sifat) turkumlarida uchraydi. Sifat turkumiga oid qo‘shimchalarning omonimik holatlari ot va fe‘l turkumlariga nisbatan juda kam. Ot va fe‘l turkumiga oid ko‘rsatkichlarning omonimik holatlarni (bir turkum doirasida) yuzaga keltirishi bir - biridan uncha farq qilmaydi. Lekin ot turkumida so‘z yasovchilarning, fe‘l turkumida esa forma yasovchilarining ishtiroki ortiqroq bo‘lib, ular yuzaga keltirgan omonimik qatorlar soni jihatdan fe‘l turkumi qo‘shimchalaridan ajralib turadi. Binobarin bu fe‘l turkumida 2 ta affiksning shaklan teng kelishi asosiy xususiyatligi, ot turkumi qo‘shimchalarida uch va to‘rt elementning bir qatorni tashkil etishi mumkinligi bilan ham izohlanadi.

Turli funksiyadagi affikslarning har xil turkumlar (ikkitadan turkum) o‘rtasida shaklan teng kelish hollari asosan ot, fe‘l, sifat turkumlari o‘rtasida uchrashi aniqlandi. Binobarin, ularni omonimik affikslarning soni jihatdan gruppalaganda omonimik holat a) ot – fe‘l, b) ot - sifat, v) sifat – fe‘l turkumlariga oid affikslar o‘rtasida ko‘pligi kuzatiladi. Bunda ot – fe‘l, ot - sifat turkumlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi omonimik holatlariga nisbatan sifat – fe‘l turkumlari qo‘shimchalari o‘rtasida shaklan teng kelish kamroq uchradi. Boshqa turkumlarga oid qo‘shimchalarning (masalan, ot- son, sifat - ravish, sifat - son kabi) bu xususiyat sanoqli hollardagina mavjud.

Shuni aytish kerakki, ot, sifat, fe'l turkumlari doirasida va ular o'rtasida affikslarning shaklan duch kelish hollarining boshqa turkumlarga nisbatan ko'pligi ularda turli qo'shimchalarning ortiqligi bilangina emas, balki bu turkum ko'rsatkichlarining (ayniqsa, so'z yasovchilarining) ko'p variantlilik bilan ham izohlanadi.

Chunonchi, I tip omoqatorlarda ot - sifat yasovchi tarzidagi 10 ta omoqator bo'lib, shundan 4 ta qator (8 affiks) aslida 2 ta omoaffiksning omonimik variantlari hisoblanadi. Umuman, I tip omoqatorlarga kirgan 11 ta omonimik guruh (22 ta affiks) aslida 4 ta omoqator (8 ta affiks)ning variantidir. Demak, o'zbek tilida omonimik affiksalar formalar (omonimik qatorlar) sonining odatdagidan ko'ra ortiq bo'lishi affiksalar ko'p variantlilik hodisasi bilan bog'liq hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Азизов О.А. Тилшуносликка кириш. – Тошкент. 1963,118-134 бет.
2. Ақобиров С. Луғат – сўз хазинаси. – Тошкент. 1977.
3. Аъламова М. Ўзбек тилида амоморфемалар «Научные труды» Таш.Д.У . 2ИИ стр ИИИ.
4. Аъламова М. Ўзбек тилида омоморфемалар («Научные труды Таш.Д.У», вып. 268, Языкознание.
5. Бердиёров Ў., Хўжаев Т., Йўлдошев П. Умумий тилшунослик – Самарканд. 1974. 46-47 бетлар.
6. Винаградов В.В. Об омонимии и смежных. Журнал «Вопросы языкознаний», 1960. стр.6.
7. М-Галинская М.М. Некоторые явления грамматическое омонимы в современном английского языка (Журнал. «Иностранные языки в школе», 1956, № 5, стр. 56).
8. Галкина - Федарок Э.М, Горшкова К.Ф., Шанский. Н.М. Современный русский язык. МГУ. 1962 стр 2ИИ-89.
9. Галкина - Федарок Э.М., Горшкова К.Ф., Шанский. Н.М. Современный русский язык МГУ, 1962, стр. 288-289.
10. Головин Б.Н. Введение в языкознание изд. -3-е исправленное изд. Высшая школа». Москва. 1977. 69-114 бет.
11. Фуломов А., Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. 1973. 10-11 бет.
12. Денисов П.Н. Очерки по русской лексикологии и учебное лексикографии. изд. МГУ.1971

13. Жўрабоева М. Ўзбек тилида аффиксал омонимия канд.д ис. Тошкент.1975.

14.Жўрабоева М.А. Ўзбек тилидаги аффиксал омонимия қаторларни ёппасига ўрганиш натижалари. Ўзбек тили стилистикаси масалалари ТошДУ. Илмий асарлар тўплами. 486 т-т, 1975. 113 бет.

15. Колшанский Г.В. Проблема противоречий в структуре языка («Наука», М., 1972, стр. 36).

16.Литературоведэние. – Ташкент, 1964, стр. 188); Б. О. Ўрозбаева. Словообразование в киргизском языке. «Илим», 1964, стр. 145.

17. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И.. Ўзбек тили. – Тошкент. 1962. 27-28 бет.

18.Ўрозбоева Б.О. Словообразование в киргизском языке . 1964.

19.Пинхасов Я.Д. Ҳозирги замон ўзбек тилида омонимик ва синонимик аффиксларга доир («Доклады научно-теоретической конференции Бухарского Гос. пед. ин-та С. Оржоникидзе», Бухара, 1957, стр. 81, 83).

20. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги замон ўзбек тилида омонимлик ва синонимлик аффиксларга доир «Доклады научно-теоретической конференции Бухарского Гос. пед. института С. Оржоникидзе», Бухара. 1957.

21. Решетов В.В. Узбекский язык ч.1. том 1959. Стр.122.

22. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. – Тошкент. 1981. 100-102 бет.

23. Тихонов А.Н., Ходжаев Т., Кунгуров Р. Омонимия аффиксов в современном Узбекском языке. В. Вопросы востоковедения. – Самарканд, 1966.

24. Тунгатаров Дж. Омнимические аффиксы в казахском языке. Авто.реф.кан.дис.Алма-Ата. 1978.

25. Тунгатаров Дж. Омнимичные аффиксы в казахском языке, АКД, Алма-Ата, 1973, стр. 11-31.

26. Ўзбек тили грамматикаси. 1 том, – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1976.

27. Хасенова Аққал. Лексика-грамматикалик сифати. Алма-Ата, 1971, 152- 153-бетлар.

28. Шайкевич А.К. О принципах классификации омонимов. (Сб. «Процессы развития в языке», М., 1959, стр. 125).

29. Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. Москва. 1959 стр. 97.

30. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Хожиев А., Расулов И., Дониёров К. «Ҳозирги ўзбек адабий тили» 1 қисм, – Тошкент, 1980. 164-65 бет.